



Muxamedov To'lg'injon Djuraevich

DIRIJORLIK

II qism

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

MUXAMEDOV TO'LQINJON DJURAEVICH

DIRIJORLIK

II qism

Buxoro -2021

85.315ya73
78.071.2(075.8)
M 93

Muxamedov To'lqinjon Djuraevich

Dirijorlik II qism [Matn] : o'quv qo'llanma / Muxamedov To'lqinjon
Djuraevich – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy» Durдона nashriyoti, -
2022. – 156 b.

UO'K 78.071.2(075.8)
KBK 85.315ya73

TAQRIZCHILAR

Ro'ziyev D.Y.

– Buxoro Davlat universiteti San'atshunoslik
fakulteti musiqa ta'limi kafedrası dotsenti, p.f.n.

Mustafoyev B.I.

– Buxoro viloyat Xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi dotsenti, p.f.n

Ushbu oquv qo'llanma universitet, institut va o'rta maxsus ta'lim muassasalari dirijorlik fani mashg'ulotlarida foydalanish, shuningdek ushbu sohaga qiziqqan keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan. Mazkur oquv qo'llanmada qisqacha dirijorlik ixtisosligi, fanning o'ziga xosligi, hamda asosan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishda mo'ljallangan dirijorlik mashqlari, xor va a-kapella musiqa asarlari, uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyalar va musiqiy lug'atlar yoritib berilgan.

Fan : Dirijorlik
Bilim sohasi : 100000-gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 110,000-pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111100-musiqa ta'limi
Fan / Modul kodi: DirM1004

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 25-dekabr 538-sonli buyrug'iga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan. Ro'yxatga olish raqami 538-312.

ISBN 978-9943-7968-9-8

© Muxamedov To'lqinjon Djuraevich

2

O'QUV QO'LLANMA

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Toshkent Davlat Pedagogika universiteti tomonidan "Dirijorlik" fani uchun ishlab

chiqilgan dasturi asosida tayyorlandi. (ro'yxatdan o'tgan sana 14.08. 2020 yil № BD-5111100-2.06 .)

O'quv qo'llanma musiqa ta'limi kafedrasining 2021 yil 25 may №40 sonli, San'atshunoslik fakultetining navbatdan tashqari 2021 yil 27 maydagi yig'ilish qarori va universitet o'quv-metodik kengashining 2021 yil 1 iyuldagi 11-sonli yig'ilish bayoni bilan muhokama qilinib tasdiqlangan

Annotatsiya:

Mazkur o'quv qo'llanmada qisqacha dirijorlik ixtisosligi, fanning o'ziga xosligi, amaliy mashg'ulotlarda foydalanishda mo'ljalangan dirijorlik mashqlari, xor va a-kapella musiqa asarlari, uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyalar va musiqiy lug'atlar yoritib berilgan. Shuning bilan birga talabalarning badiiy ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirishiga, qo'shiqlar repertuarini xilma-xil shakl va xarakterdagi rang-barang asarlar bilan boyitib borishiga, turli o'lchov, metr va uslublarda yaratilgan asarlarni tahlil qilish, to'g'ri dirijyorlik qilish, ularni xor-dirijyorligi mashg'ulotlarida o'rgatish nazariyasi va amaliyoti haqida so'z boradi. O'quv qo'llanma bo'lajak xor dirijyori va musiqa o'qituvchisining shakllanishida qo'yiladigan barcha DTS talablarni hisobga olgan holda, quyidagi:

- Xor va dirijorlik mutaxassisligi bo'yicha umumiy ma'lumotlar;
- Xor va dirijorlik fani va uni o'qitishdagi o'ziga xos xususiyatlar;
- Xor va dirijorlik malakalarini shakllantirish;
- Oddiy va murakkab o'lchamlarda dirijyorlik qilish;
- Dirijyorlikda qo'llarning ishlashi va texnik jihatlari;
- Asosiy sxemalar (to'rlar) va ularning variantlarini turli o'lchamlarga moslashtirishning umumiy qoidasi;
- Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun mashq va asarlar;
- Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mavzulari uchun tavsiyalar kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Аннотация:

В этом учебнике представлена краткая специализация дирижирования, специфика науки, дирижерские упражнения для использования на практических занятиях, хоровые и а капелла музыкальные произведения, методические указания, рекомендации и нотные словари. А также в книге обсуждаются как учащиеся должны овладеть аспектами художественного исполнения, обогатить свой песенный репертуар красочными произведениями разных форм и характеров, анализировать произведения созданные в разных размерах и стилях, правильно их дирижировать, практиковать их в хоровом дирижирование и в практике преподавания.

Учебник, учитывающий все требования ДТС к становлению будущего хорового дирижера и учителя музыки, включает следующие вопросы:

- общие сведения о специализации хорового дирижирования;
- Хоровая наука, дирижирование и особенности ее преподавания;
- формирование хорового и дирижерского мастерства;
- дирижирование в простых и сложных размерах;
- работа над руками и технические аспекты дирижирования;
- Общие правила адаптации базовых схем (сеток) и их варианты к разным размерам;
- Упражнения и работы для использования в практических занятиях;
- рекомендации для самостоятельного изучения и самостоятельной работы.

Annotation:

This textbook presents a brief history and specialization of conducting, the specifics of science, conducting exercises for use in practical classes, choral and a cappella musical works, guidelines, recommendations and musical dictionaries. The book also discusses how students should master the aspects of artistic performance, enrich the song repertoire with colorful works of different forms and characters, analyze works created in different sizes and styles, conduct them correctly, practice them in choral conducting and in teaching practice.

The textbook, which takes into account all the requirements of the DTS for the development of a future choir conductor and music teacher, includes the following questions:

- general information about the history and specialization of the choir and conductor;
- Choral science and conducting and features of its teaching;
- formation of choral and conductor skills;
- conducting in simple and complex sizes;
- work on hands and technical aspects of conducting;
- General rules for adapting basic schemes (grids) and their variants to different sizes;
- Exercises and work for use in practical exercises;
- recommendations for self-study and independent work.

Pedagogik annotatsiya:

O'quv fani: -“Dirijyorlik”

O'quv qo'llanma nomi: - “Dirijyorlik II qism”

Mazkur o'quv qo'llanmada: 5111100-musiq ta'limi yo'nalishidagi Dirijyorlik fani organilib, uning mazmuni, uni o'qitishdan maqsad, vazifasi, bo'lajak dirijyor, xor rahbari va musiq o'qituvchisining shakllanishida qo'yiladigan barcha talablar, laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va musiq asarlari, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar uchun tavsiyalar, fan oqitilishining natijasida talabalarda shakllanadigan kompetensiyalar, nazariy va uslubiy tushunchalar, hamda dirijyor-pedagog uchun ko'rsatmalar ifodalangan.

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni shundaki, Dirijyorlik fani xor rahbari, turli orkestr va ansambllar uchun dirijyor, yuqori malakali musiq o'qituvchisi mutaxassisini tayorlashga asoslangan va bolajak dirijyorlarning ko'p jihatdan takomil bo'lib voyaga etishishlarida muhim rol o'ynaydi. Xususan talabalarga dirijyorlik sirlarini o'rganish hamda ularga turli xil musiq jamoalariga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirish, dunyo standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish masalalaridan iboratdir.

Fanni o'qitishda maqsad hamda vazifasi

Mazkur qo'llanmada bo'lajak dirijyor, xor rahbari va musiq o'qituvchisining malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun qo'yiladigan barcha talablar hisobga olinib, uni amaliy egallash uchun repertuar dasturlari belgilab berish;

- talabalarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash va ularni dunyo standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish;
- talabalarning badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qimmatini va ularning ijrosini to'g'ri baholay olishga o'rgatish;
- dirijyorlik texnikasining sirlarini o'rgatish, dirijyorlik malakalarini hosil qilish, interpretatsiya;
- musiq pedagogikasining tizimlilik, izchilik, oddiydan - murakkabga o'tish, individual yondashish va gurux bilan muloqot o'rnatish kabi didaktik tamoyillariga amal qilishni o'rgatish;
- badiiy ijroning mukammal variantini oldindan eshita bilish va unga erishish ustida rejali ish olib bora olishga o'rgatish.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Dirijyorlik amaliyoti fani o'quv rejada 4-5 semestrlarda o'qitilishi mo'ljallangan. Fan xor sinfi, vokal ansambli, zamonaviy musiq va vocal ijrochiligi, xor partiturasini o'qish, xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti, musiq nazariyasi, solfedjio kabi fanlar bilan bog'liq holda o'rganilib, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ilm fan va san'at sohasidagi o'rni

Musiqqa san'ati-yoshlarimizni tarbiyalash jarayonida ularni ma'nan yetuk, ilmiy dunyoqarashi keng komil inson bo'lib shakllanishi va mustahkamlanishi uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, tinglovchi yoki tomoshabinni nafas olamiga olib kirish va ularda musiqiy estetik tarbiya madaniyatining shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. Musiqqa san'atlaridan biri bo'lmish –xor dirijorligi san'ati o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Dirijyorlik amaliyoti fanining ilm fan va san'at sohasida alohida o'z o'rnini bor. Dirijyorlik fanidagi muhim omillarning barchasi: dirijyorlik fanidan xor san'atining yaratilish tarixi, xorshunoslikning nazariy tamoyillari, ovozlarning bo'linishi, ularning fiziologik-psixologik xususiyatlari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi, o'zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan eng nodir xor asarlari bilan tanishtirish, bu asarlarini professional darajada tahlil eta olish va uni jamoa bo'lib kuylay olish ko'nikmalariga ega bo'lish, aynan dirijyorlik amaliyoti fani orqali amalga oshiriladi. Bu fan eng avvalo yosh mutaxassislarni professional ijodkor bo'lib yetishishi uchun asosiy manbaa bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar turli o'lchov, metr va uslublarda yaratilgan asarlarni tahlil qilish, unga to'g'ri dirijyorlik qilish, ularni xorga o'rgatish nazariyasi va amaliyotini o'rganadilar. Laboratoriya ishlari quyidagi mavzularda olib boriladi:

1. Dirijyorlik faniga kirish.
2. Dirijyorning turish holati va ishchi harakatlari.
3. Dirijyorlarning bir biridan amaliy farqi.
4. O'lchamlar (oddiy va murakkab o'lchamlar)
5. 2/4 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish.
6. 3/8 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish.
7. 3/4 o'lchamda amaliy mashqlar bajarish.
8. 3/4 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish. Ko'nikmalarini shakllantirish.
9. 4/4 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish. Ko'nikmalarini shakllantirish.
10. 5/4 o'lchamdagi amaliy mashqlar bajarish. Ko'nikmalarini shakllantirish.
11. 5/8 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish. Ko'nikmalarini shakllantirish.
12. 6/4 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish. Ko'nikmalarini shakllantirish.

13. 6/8 o'lchamdagi asarlarda dirijyorlik holatini o'rganish. Ko'nikmalarini shakllantirish.

Laboratoriya ishlari multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada, yarim akademik guruhlar bilan bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashgulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-dirijyorlik fanidan xor san'atining yaratilish tarixi; xorshunoslikning nazariy tamoyillari; ovozlarning bo'linishi, ularning fiziologik-psixologik xususiyatlari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi,

- dirijyorlik qilish, xorda kuylash jarayoni, xor repertuarlarini optimal tanlash; xorga dirijyorlik qilish texnikasi va xordagi ovozlarning xususiyatiga ko'ra asarlarni ajratib olish; jamoaga raxbarlik qila olish xususiyatlarini singdirish hamda dirijyorlik sirlarini o'rganish; badiiy ijro uslublaridan foydalanish va ijrochilik mahoratini o'stirish, jamoa bo'lib kuylash bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; o'zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan eng nodir xor asarlari bilan tanishtirish, bu asarlarini professional darajada tahlil eta olish va uni jamoa bo'lib kuylay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Kirish

Jahon taraqqiyoti o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama ijobiy kamol topishi bugungi kun davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli o'z Vatanidan faxrlanish tuyg'usiga boy kishilar etib tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir. Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida axloqiy poklik, ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi hamda tarbiyalaydi. San'atning turli ko'rinishlari bo'lib, barchasida jamiyatning taraqqiyot yo'nalishlari tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi va undaydi. San'at qadriyatlar tizimida yuksak ma'naviyatni shakllantirishga alohida o'rin tutadi. San'at madaniy taraqqiyotning barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositachi halqalar mavjud bo'lib, har qanday badiiy hodisa-muayyan asar, uslubiy yo'nalish bo'lsin, ular vujudga kelishi va rivojlanishida ta'sir kuchi darajasi bilan belgilanadilar, baholanadilar, o'lchanadilar. San'atlar ichida musiqa san'ati yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Hozirda musiqa va umuman san'atning inson tarbiyasidagi roli kundan-kunga ortib bormoqda. Musiqa san'ati-yoshlarimizni tarbiyalash jarayonida ularni ma'nan yetuk, ilmiy dunyoqarashi keng komil inson bo'lib shakllanishi va mustahkamlanishi uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qilishi ma'lum. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, tinglovchi yoki tomoshabinni nafosat olamiga olib kirish va ularda musiqiy estetik tarbiya madaniyatining shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. Musiqa san'atlaridan biri bo'lmish–xor dirijorligi san'ati o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Kuy, musiqa, ashula matni, ijrochi mahorati dirijor orqali boshqarilib uyg'unlikda insonga har tomonlama ta'sir qilishni ta'minlaydi. Kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga, matn esa uning

sezgilari va ongiga ta'sir etadi. Dirijorlik san'ati jahon xalqlarining barcha evolyutsion rivojlanish davri qatlamlarida asta-sekinlik bilan rivojlanib kelgan eng yosh san'at turidan biri bolib hisoblanadi. Ushbu san'at orqali tinglovchi yoki tomoshabinni ma'naviy va axloqiy dunyosini har tomonlama o'stirish, oliyjanob fazilatlarini kamol toptirish mumkin. Yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda dirijorlik san'atidan foydalanish zarurligini yana shu bilan izohlash mumkinki, hozirgi asosiy vazifa sifatida shaxsni har tomonlama kamol toptirish yo'lida tarbiyaning turli vosita shakl va usullaridan foydalanishni ham taqozo etishidir. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalari davridagi ta'lim-tarbiya yo'nalishida shaxsni uyg'un kamol toptirishdek murakkab vazifani bajarishda yordam beradigan har bir yondoshuv muhim va ahamiyatlidir.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, Buxoro Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrasi o'quv jarayoniga ham kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash maqsadida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'qitish usullari keng joriy etilmoqda. Yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, master-klasslar o'tkazish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini, boshlang'ich va o'rta musiqa ta'limi (bolalar musiqa va san'at maktablari, san'at litseylari va kollejlari) uchun yuqori malakali pedagog-mutaxassislar tayyorlash maqsadida o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini joriy qilish yanada faollashtirilmoqda. Bir qator ixtisoslik fanlarini o'qitish sifatini oshirish uchun izlanishlar olib borilib, yangi o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda va xorijiy adabiyotlar tarjima qilinmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining talabalarga ma'lum bir mazmuni etkazish, ularning bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, faoliyatning muayyan sohasida qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qanday usul va vositalardan foydalanishiga bog'liq. Ushbu o'quv qo'llanma - yuqori malakali xor dirijorlari mutaxassislarini tayyorlash jarayonida foydalanish uchun taqdim qilinmoqda.

I-bo'lim

1.1 Xor haqida tushuncha

(yunoncha: choros — davra o'yin qo'shig'i)

- 1) antik davr teatr tomoshalarining jamoaviy ishtirokchisi; birgalikda kuylab, raqsga tushib dramatik holatlarga, qahramonlar harakatiga izoh beradigan aktyorlar guruhi;
- 2) xonandalar jamoasi ma'nolarini anglatadi.

Tarkibiga ko'ra xorlar quyidagicha bo'linadi:

-bir turdagi - **erkaklar xori**, **ayollar xori**, **bolalar xori** va **aralash**, shuningdek, ijrochilar soniga qarab:

-**kamer**: 12— 20 kishidan iborat, **kichik** va **katta** 100—120 gacha qatnashchilardan tarkib topishi mumkin.

-**Qo'shma xorlar**da 500— 1000 va undan ortiq ishtirokchi qatnashishi mumkin.

Yevropada professional unison xorlar xristian cherkovlarda 4-asrdan ma'lum. 10—13-asrlarda xor jamoasining ovoz (partiya)larga bo'linishi boshlandi. Gomofoniya uslubi va mumtoz garmoniya rivoji davri (17-asr)dan aralash xor jamoasi 4 ta (soprano, alt, tenor, bas) partiyaga ajratildi. Xor ijrochiligi musiqa cholg'ulari jo'rligida va jo'rsiz (a kapella) bo'ladi. O'zbekistonda ko'p ovozli Xor ijrochiligi 19-asr oxiridan rivojlana boshladi (V. Sakovich, N. Mironov. S. Kuzmenko va boshqa rahbarligidagi jamoalar). Professional xorlar 20-asr o'rtalarida tashkil topgan: O'zbek radiosi Xori (1947, V.Verov), Navoiy teatri Xori (1948), O'zbek filarmoniyasining Davlat akademik kapellasi (1952, S. Valenkov va A. Sultonov). Aynan shu davrdan boshlab xor ijrochiligi maxsus musiqa ta'limi tizimiga kiritildi, professional jamoalar qatorida o'quv, havaskor, bolalar xorlari keng rivoj topdi. Hozirda O'zbekistonda bir necha professional xor jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston davlat akademik kapellasi (1978—2001-yillarda badiiy rahbari va bosh dirijyori—A.Hamidov, 2002-yildan D.Jdanov). Repertuaridan chet el kompozitorlari (Kerubini, Motsart, Verdi, Fore, Gendel, Taneyev, Chesnokov, Raxmaninov va boshqalar)ning mumtoz asarlari, shuningdek, qayta ishlangan o'zbek xalq, qo'shiqlari, O'zbekiston kompozitorlari asarlari o'rin olgan. O'zteleradiokompaniyasi qoshidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi (tashkilotchisi — B.Umidjonov, 1960 y 16 dekabr; 2003-yildan badiiy rahbari — D.Malikova, dirijyori —B.Lutfullayev, J.Shukurov, C. Radjabova, I.Matyakubovlar faoliyat yuritdilar. 2013 yildan badiiy rahbar va dirijyor— Sh.Boboxonova Badiiy jamoalar birlashmasi qoshidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan Xor jamoasida ish ko'rsatdilar. Ijro uslubida Yevropa xor an'analari bilan milliy xonandalik uslublari uyg'unlashgan edi. Repertuaridan M.Burhonov, B.Umidjonov, S.Boboyev, Ik.Akbarov, M.Nasimov va boshqa qayta ishlangan xalq qo'shiqlari, M.Bafoyev, F.Alimov, B.Lutfullayev, D.Omonullayeva, N.G'iyosov va boshqa o'zbek kompozitorlarining

poema, kantata, oratoriyalari asosiy o'rin olgan. D.Jdanov tomonidan xususiy tashkil etilgan "Ipak yo'li" kamer xori 2001-2006 yillarda faoliyat yuritgan. Repertuaridan jahon xalqlari qo'shiqlari, chet el mumtoz asarlari o'rin olgan.¹

1.2 Xor san'ati tarixi

Xor san'ati – musiqa san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san'ati turiga aylangan. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish, ularni yanada jiplashtiradi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, turli millatlar musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Xor san'ati o'zining qadimiy musiqa madaniyatini ifodalashda uzoq tarixga yondoshadi. Asrlar davomida cherkov kuylari professional xor san'atida asosiy ijrochilik hisoblangan. Qadimiy cherkov kuylari, xuddi qadimiy grek kuylariga o'xshab paydo bo'lishiga qadar ovozlarning pastki va yuqori ovozlari (organum, diskant) rivojlana bordi. Uyg'onish davrida xor san'atida katta o'zgarish – ko'p ovozli xor ijrochiligi paydo bo'ldi. Xor san'atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga a'capella ijrosida kuylashning paydo bo'lishi asos bo'ldi. XV–XVI asrlarda yashab o'z ijodida ko'p ovozli asarlar yaratib kelgan – J.Palestrina, O.Lasso, K.Janeken kabi polifonist-kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar. Davr taqozosi bilan madaniyatlar yaqinlashuvi asrlardan-asrlarga o'tib, bir-biriga ta'sir ko'rsata boshlagan. Xususan, O'zbekiston madaniyatiga g'arb mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyadagi madaniy o'zgarishlar bevosita singib kelavergan. Buni inkor etib bo'lmaydi, shu sababli mazkur madaniyatlar haqida ham ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lib olishimiz darkor.

1.3 G'arb mamlakatlarida xor ijrochiligi

Ma'lum bir davrdan so'ng xor san'atida yana bir o'zgarish paydo bo'lib, yirik asarlar – kantata, oratoriyalar mualliflari sifatida – I.S.Bax, G.Gendel, K.Glyuk ijodi, keyinchalik Meyerber, J.Verdi, shu bilan birga F.Shubert, B.Mendelson, R.Shuman kabi romantik kompozitorlar ijodida kamer xor musiqasi rivoj topdi. Shu davrda qo'shiq sevadiganlar xor jamoalari «lidertafel» (nemischa so'z bo'lib, «yetakchi qo'shiqchi» ma'nosini anglatadi. Germaniya, Avstriya va Shveysariya davlatlarida keng rivojlangan) va «orfeon» (fransuzcha «xor sevuvchilar jamoasi» 1818-yilda Parijda G.Vilemom rahbarligida) paydo bo'lgan. Xor san'atining cherkov musiqa san'atidan asta-sekin tashqariga chiqishi, opera teatrlarining shakllanishi, XIX asrdagi milliy kompozitorlik maktabini xalq omma musiqasiga chambarchas bog'lanib ketishi Rossiya, Boltiq bo'yi davlatlari – Chexiya, Bolgariya, Vengriya va boshqa davlatlarda namoyon bo'lgan. Keyinchalik AQSH, Lotin Amerikasi, Yaponiya davlatlarida ham bu jarayon davom ettirilgan.

1.4 A Капелла haqida tushuncha

¹ Barno Musaboyeva.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Xor>

A Kapella italyancha a capella, "chapeldagi kabi" - odatda xor jamoasida cholg'u jo'rligisiz qo'shiq aytish ma'nosini bildiradi. "A Kapella" atamasi dastlab Uyg'onish davri polifoniyasi va barokko kontsert uslubini farqlash uchun mo'ljallangan edi. 19-asrda Uyg'onish davri polifoniyasiga bo'lgan qiziqishning kuchayishi vokalni ko'pincha cholg'uchilar tomonidan dublyaj qilinishini bilan birgalikda bu atamani cholg'u hamrohligisiz vokal musiqasi degan ma'noga olib keldi. Bu atama 17-asrning oxirida paydo bo'lgan, odatda Rim Sistine kapellasida papaning sig'inish amaliyoti bilan bog'liq. Keng ma'noda "a kapella" qo'shig'i cholg'u jo'rligisiz har qanday vokal musiqani (solist, vokal ansambli, xor va vokal kompozitsiyalarining kombinatsiyasini) anglatadi. O'sha davr xalq san'atida allaqachon cherkov musiqasi keng tarqalgan edi. Ilk nasroniylar tomonidan Xudoga hamdu sano uchun apology- madh, faqat so'z (logotiplar) bilan ilk katolik va pravoslav Aleksandriyalik Klement tomonidan inson ovozi bilan yangragan, fleyta va trubalarsiz aytilar edi. Faqatgina G'arbda birinchi marta organ jo'rliqi katolik va pravoslav cherkov xizmatida taxminan 670 yilda, so'ngra Gollandiya maktabi bastakorlarining asarlarida, asos an Jovanni Palestrina ijodida qo'llanilgan. Uyg'onish davri kompozitorlari, jumladan, madrigal²lar tomonidan saroy san'atida ham "a kapella" kuylash uslubi rivojlangan. Professional xor san'atining uslubi sifatida "a kapella" o'rta asrlarning oxiriga kelib, kult polifoniyasida aylandi, Gollandiya maktabi ustalari orasida gullab-yashnadi va Rim maktabida (Palestrina, Benevoli, Scarlatti) klassik ifodasini oldi. Shuni ta'kidlash kerakki, 17-18-asrlarda a kapella (ayniqsa saroy san'atida) qo'shiqchiligi yakkaxon cholg'u asboblari yoki general bas³ bilan birga ijro qilinib kelinardi, keyin umuman jo'rnavozsiz ijro yana qadrlana boshladi. Pravoslav cherkovlarining xor san'ati faqat "a kapella" uslubida qo'shiq kuylashdan foydalanadi. Qadimgi Sharqiy pravoslav cherkovlarida (Efiopiya, Kopt, Malabar) ba'zan musiqiy jo'rnavozlikka, shu jumladan an'anaviy Afrika va Osiyo asboblardan foydalanishga ruxsat berilardi. Rossiyada bastakor Aleksandr Grechaninov cholg'u asboblarni ibodatga kiritish tarafdori edi, ammo bu qaror 1917-1918 yillardagi mahalliy kengash tomonidan qabul qilinmadi. Jahon adabiyotida ham erkaklar, ham aralash xorlar tomonidan musiqa jo'rligisiz ijro etish uchun yozilgan juda ko'p asarlar mavjud. Bularga oratoriyalar, xor va solistlar uchun syuitalar, qo'shiq sikllari, rekviyemlar kiradi. Ularda muqaddas musiqa an'analarning katta ta'siri namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. A Kapella yo'nalishidagi qo'shig'lar 19-asr Yevropa kompozitorlari tomonidan kamer xor musiqasida keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda a kapella kuylash keng tarqalgan va musiqachilarning so'zlashuv tilida "akapella kuylash" iborasi bilan qo'llaniladi.

1.5 Bolalar xori ijrochilik shakllari

O'lka xalqlariga ommaviy musiqa tarbiyasi berish uchun musiqa va xor dirijyorligi ta'limi yo'lga qo'yish, ya'ni umumiy ta'lim maktablari hamda musiqa xor

² Madrigal (italyancha madrigal, lotincha mandrialis, mandrigalis ; lotincha matricularis "kompozitsiya" ona tilida" — **kichik musiqa asari, odatda yaxshi lirik mazmunli**. Italiya musiqasi tarixida Ars nova madrigallari (14-asr) va Uyg'onish davri madrigallari ajralib turadi. XVI asr madrigallarining ko'p mualliflari Italiyada ishlagan franko-flamand maktabining kompozitorlari edi. Italiya modeliga ko'ra madrigallar (ikkinchi turdagi) 16—17-asrlarda Angliya va Germaniyada ham yozilgan.

³ Umumiy bas (nem. Generalbaß, so'zma-so'z — umumiy bas), basso continuo (ital. basso continuo — uzluksiz bas), raqamli bas (italyancha basso numerato) — **sonli polifonik musiqiy kompozitsiyaning bas ovozi** (undoshlik — interval va akkordlarni bildiruvchi).), uning asosida ijrochi hamrohlikni quradi (ma'lum darajada improvizatsiya qiladi)

havaskorlik kollektivlari uchun oliy ma'lumotli ashula va musiqa o'qituvchilari, malakali rahbarlar tayyorlash kerak.

Bolalar xori ijrochilik formalari:

- Yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash davlat ahamiyatiga egadir. Shuning uchun ham O'zbekistonni mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab, yoshlarga estetik tarbiya berish masalasiga katta e'tibor berib kelinmoqda.

Maktablar dasturiga madaniyat darsi kiritilishi bilan birga, umumta'lim maktablarida, musiqa maktablarida bolalar havaskorlik xor to'garaklari tuzilib, ular faol ishlay boshladi.

Hozirgi kunda bolalar ijrochiligining yangi formalari mavjud :

- bolalar xor studiyalari,
- bolalar xor maktablari,
- bolalar xor bilim yurtlari,
- bolalar musiqa maktablar xori.

Xor havaskorligining turli formalari : - havaskorlik xorlari faoliyatiga, ish tajribasiga va o'tovchi funktsiyasiga ko'ra:

- ommaviy,
- boshlang'ich,
- yuqori tip,
- massiv (qo'shma – ulkan) xorlarga bo'linadi.

Ommaviy qo'shiq aytish havaskorlik xor ijrochiligining eng oddiy va o'ziga hos shaklidir. Bayram va dam olish kechalarida, ommaviy sayillarida istirohat bog'lari va stadionlarda ko'pchilik bo'lib (ommaviy) qo'shiq aytish xor havaskorligi tajribasida azaldan ma'lum. Ommaviy qo'shiq aytish xorlari tabiiy ravishda paydo bo'lib, unda havaskorlik xorlarining boshqa turlariga o'xshagan mahsus, muntazam sistema o'quv mashg'ulotlari va vokal tarbiya ishlari olib borilmaydi, ovozlar ham sinovdan o'tkazilmaydi, balki qanday bo'lsa shundayligicha qo'shiq ijro etilaveradi. Bunday sharoitda tuzilgan xorlar doimiy bo'lmaydi, ya'ni ular o'zgarib turadi. Yig'ilgan kishilar orasida ozmi – ko'pmi qo'shiq aytish malakasiga yoki musiqa savodiga (musiqachi) ega bo'lgan kishilardan bittasi jo'rnavozlikni o'z zimmasiga oladi va kecha o'tguncha xorni boshqaradi. Jo'r bo'lib qo'shiq aytishni maxsus dirijyor – instruktorlar ham boshqarishi mumkin. Har xil kishilardan iborat bunday xorlar bilan keng tarqalgan ommaviy va xalq qo'shiqlari ijro etiladi. Bunday ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqning asosiy kuyini ba'zida havaskor xonandalar tomonidan bir oz o'zgartirib (noaniq) aytish hollari ham uchraydi. Ma'lumki, ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish kishilarga estetik zavq va tetik kayfiyat bag'ishlaydi. Havaskorlik xorida ma'lum bir ovoz va ijro madaniyatiga erishish maqsadida keng vokal – xor ishlari olib boriladi.

Boshlang'ich ish formasidagi xorlarga - ijro tajribasi kam, lekin maxsus tashkil etilgan, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kollektivlar kiradi. Shuningdek, maxsus tuzilgan

havaskorlik xori qaysi tipda bo'lmasin, u o'zining tashkiliy asoslari va ish printsiplari, xonandalar sostavining doimiyligi va muntazam ishlashi bilan ko'pchilik bo'lib ommaviy qo'shiq aytish formasidan tubdan farq qiladi. Boshlang'ich ish formasidagi xorlar madaniyat uylari va musiqa maktablarda tuziladi. Bunday xorlarga birmuncha ovoz diapazoniga va musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan barcha xonandalar qabul qilinaveriladi. Boshlang'ich ish formasidagi xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'lmaganliklari tufayli ularning repertuari ham murakkab bo'lmaydi. Ular, asosan, ikki, uch ovozli va epizodik to'rt ovozli ashulalarni, kompozitorlarning ommaviy xor asarlari va klassik asarlardan kichik hajmdagi namunalarini ijro etadilar. Boshlang'ich formadagi xorlarning ijro mahorati, repertuari yuqori tipdagi xorlar qatoriga ko'tarilishi rahbarning malakasiga, tashkilotchiligiga, o'zi va xor ustida ijodiy ishlashiga bog'liqdir. Aksincha, u iste'dodsiz, tajribasiz bo'lsa, xorning vokal – xor texnikasi yaxshi rivojlanmaydi, ish faoliyati muntazam bo'lmaydi, kontsertlari esa o'zlari ishlab turgan korxonada yoki muassasa doirasidan tashqari chiqolmaydi. Bunday xorlar ko'p yil davomida faoliyat kechirsalar ham, ular boshlang'ich ish formasidan yuqoriga ko'tarila olmaydilar.

Yuqori tipdagi xorlar - asosan ovozlarni saralash yo'li bilan tuziladi. Bunday xorlarga boshlang'ich ish formasidagi xorning ko'p ovozli va akapella xor asarlarini bemalol ijro eta olish darajasiga ko'tarilgan tajribali kollektivlar kiradi.

Shuningdek, ayrim hollarda yuqori tipdagi xorlarga xorda kuylash tajribasi bo'lmagan, ammo yaxshi ovozga va musiqiy qobiliyatga ega xonandalar ham olinadi. Ular bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazilib, asta-sekin asosiy sostavga qo'shiladi.

Yuqori tipdagi xorlarga kiruvchi xonandalar oldiga :

- ohangdor va to'la diapazonli ovozga,
- yaxshi musiqaviy qobiliyatga,
- xorda qo'shiq aytish tajribasiga,
- nota savodiga ega bo'lish kabi talablar qo'yiladi.

Yuqori tipdagi xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ularning repertuari esa ko'p ovozli asarlardan tashkil topadi. Havaskorlik xor ijrochiligi tajribasidan ma'lumki, yuqori tipdagi havaskorlik xorlarning ijro mahorati hatto professional xorlar darajasigacha ko'tariladi.

Massiv xorlar - bir necha xor kollektivlarini qo'shib tuziladi. Bunday xorlardagi xonandalar soni bir necha yuz, ayrim hollarda bir necha ming kishiga etadi.

Massiv xorlar faqat ayrim vaqtlardagina (yirik anjumanlarni o'tkazish munosabati bilan) tuziladi. Odatda, bunday ulkan xorlar ikki, uch yoki to'rt ovozli, unchalik murakkab bo'lmagan asarlarni orkestr jo'rligida (ba'zida a-kapella uslubida) ijro etiladi. Bunday xorlarning ijrosi maxsus qo'shiqchilik maydonlarida, stadionlarda -ochiq havoda o'tkaziladi. Bunda ovozlar o'ta jarangdor yangrab, ovoz partiyalarining sifati va soni bir – biriga mutanosib bo'lishi zarur.

Massiv xorlarning yana bir shakli ko'pincha yopiq estrada, kontsert zallarida tantanali kontsertlarni ochish va yopish uchun qo'llaniladi. Bunday massiv xor bir necha (aralash, erkaklar, ayollar va bolalar) jamoalarning qo'shilishidan tashkil topib, undagi xonandalar soni 200 – 300 kishini tashkil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, massiv xorlarda teng hamohanglikka erishilmasa ham xor ijrochiligining bu turini xalq o'rtasida keng qo'llash alohida ahamiyatga ega.

1.6 Xorning badiiy – ijro yo'nalishlari

Professional va havaskorlik xorlari o'zining badiiy – ijrochilik yo'nalishlariga qarab, asosan, xalq xorlari va akademik xorlarga bo'linadi.

Bularning har biri o'zining spetsifik xususiyatiga ega. Akademik va xalq xorlari bir – birlaridan ijro uslubi, repertuari, tashkiliy asoslari, ish va boshqarish metodlari bilan farqlanadi.

Akademik xor ijrochiligi ham zamon talabiga javoban yangi yo'nalish oldi. Milliy musiqa ijodiyoti ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Akademik xor san'ati bilan milliy xalq xor san'ati barobar o'sa bordi. Professional va havaskorlik xor san'atining asosini folklor tashkil qilganligi sababli ular o'zaro yaqinlasha bordilar.

Xalqning boy milliy an'anaviy san'ati (yuqori ijro mahorati) milliy professional san'atning rivojiga zamin yaratdi.

Akademik xorlar – janr xususiyatlariga ko'ra, xalq xorlaridan farq qiladi. Xorshunoslikda ko'pincha akademik yo'nalishdagi havaskorlik xorlari «umumiy tipdagi xorlar» deb ham yuritiladi.

Akademik yoki umumiy tipdagi xorlar :

«niqobdor» (yarim yopiq) tovushda, ya'ni akademik uslubda qo'shiq kuylashi,

vokal strukturasi (qat'iy partiyalarga bo'lishini),

asar partiturasining (aniq, o'zgartirmasdan, improvizatsiyasiz) o'rganish va ijro qilinishi, keng ijrochilik imkoniyatlarga ega bo'lishi, repertuarining xalq qo'shiqlaridan tashqari, rus hamda g'arb klassik kompozitorlar asarlaridan (turli murakkabligidagi asarlardan) tashkil topishi, dirijyorning kontsertlarda xorni boshqarishi shartligi kabilar bilan xalq xorlaridan farq qiladi.

Professional va yuqori malakali havaskor akademik xorlar boy repertuarga, keng diapazonga va ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Bunday tipdagi xorlarda vokal madaniyati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ular turli texnik qiyinchiliklarni ham yenga oladi. Akademik xorlarda (kontsertlarda va ish jarayonida) dirijyorning roli katta.

Akademik ijro uslubida :

- xor kapellalari,
- kamer xorlar,
- vokal ansambllari,
- turli akademik o'quv xorlari kuylaydi.

Akademik yo'nalishda jo'rsiz va jo'rli (simfonik orkestr, royal, damli orkestr va hokazo) ijrochilik formalari mavjud.

Ba'zida xalq cholg'u asboblari ansambli ham akademik ijroga jo'rlik qilishi mumkin. Masalan, ashula va raqs ansambllari va shu kabi.

Xor kapellalari - lotincha («cappella») so'z bo'lib, xor kollektivini bildiradi.

O'rta asrlarda katolik cherkovidagi xor joylashgan yerni kapella deb yuritilgan. O'sha davrda jo'rsiz (akapella) ijro uslubi keng tarqalgan edi. Keyinchalik ba'zi bir knyazliklar qaramog'idagi xor kapellalariga mahsus asarlar yozilib, ularni orkestr jo'rlikida ijro qilish formalari ham shakllana bordi. Shunday qilib, jo'rsiz (akapella) uslubda kuylash madaniyatiga ega bo'lgan professional yoki ayrim havaskorlik xorlari kapella deb yuritiladi.

Xor kapellalari repertuarining asosini akapella xor asarlari tashkil qiladi.

Kamer xorlari

- Kamer nemischa («kammer») – uy, xona ma'nosini bildirib, kamer xor esa o'ttiztacha (ba'zida undan ortiq) xonandadan tashkil topgan, o'rta sonli vokal kollektivdir. Uncha katta bo'lmagan bu turdagi xorlarga, asosan, musiqa ma'lumotiga ega talabalar va yoshlar qatnashadi.

Kamer xor ijrochilik formasi chet ellarda keng tarqalgan. Bunga sabab katta sostavli akademik xorlarni tuzish uchun kerakli ovozlarni (masalan, yaxshi bas-oktavachilarni), ko'p sonli xonandalarni jalb qilish hamda mashg'ulot, hatto kontsert uchun ham maxsus joy kerakligi kabi muammolarning yo'qligi va kamer xorlarning ijro va ish jarayonidagi serharakatligi, dinamik, ritmik mustahkamligi, ohangdagi mayin, dilrabolik kabi xususiyatlarga egaligidir.

Ba'zi kamer xorlar havaskorlikdan professional kollektivlarga aylangan. Shuning uchun ham hozir kamer xorlarning ikki – havaskorlik va professional shakli mavjud. Kamer xorlar yirik akademik xorlardan, avvalo, repertuari, xonandalar soni bilan farq qiladi. Ba'zida esa ovozlarning joylanishi ham boshqacha bo'ladi.

Kvartet usulda xonandalar (partiyalar) odatdagidek emas, balki to'rt (Soprano, Alt, Tenor, Bas) xonandadan iborat kvartetlar qilib joylashtiriladi.

Kamer xorlar keng kontsert – ijrochilik ishlari olib bordilar.

Opera xorlari

- Opera xor ijrochiligi o'ziga hos hususiyatga ega, Uning ohangi tomoshabinlarga orkestr sadolari bilan qo'shilgan holda yetib borishi uchun undagi nyuanslar («tovush tusi» yoki jilvadorligi) aniq va barqaror bo'ladi. Aks holda, xor orkestr sadolari ostida eshitmay qoladi.

Operada xor muhim rol o'ynaydi. U dekorativ fon vazifasini bajarishdan tashqari, operaning umumiy dramaturgiyasida faol qatnashadi. Demak, xor operada dekorativ fondan harakatlantiruvchi kuch darajasigacha (dramatik o'sish natijasida) ko'tarilishi mumkin.

Opera xor ijrochiligining yana bir o'ziga hos xususiyati – xor ijrosining sahna harakati bilan bog'liqligidir. Xorning harakat paytida umumiy voqealarda ishtirok etishi, har xil mizanstsenalarning mavjudligi xonandalarning dirijyorni ko'rish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Bu ishni osonlashtirish uchun xormeysterlar sahna ortidan (yoki yon tomonlarda) turib xorga kuylashni boshlash, tugallashdagi kuylashni ishoralar bilan ko'rsatib turadilar.

Opera xorlarining asosiy vazifasi - butun opera spektakli davomida (ommaviy sahna va epizodlarda omma rovida) qatnashish.

Ashula va raqs ansambllari

- Bu ijrochilik yo'nalishi qadimiy xalq san'ati negizida havaskorlikning yangi bir shakli tarzida tuzildi. Ashula va raqs ansambli qo'shiq aytish va raqs san'atining organik birikmasidan iborat. U uch asosiy janrga mansub ijrochilar guruhini o'z ichiga oladi:

- xonandalar (vokal - xor) guruhi.
- sozandalar guruhi.
- raqqosalar guruhi.

Xor sostaviga yakkaxon xonandalar ham kiradi. Bu esa ansambldagi vokal – xor guruhining ijrochilik imkoniyatlarini oshiradi.

Bu ijrochi formasi armiya, xalq va yoshlar havaskorligida keng quloqch yoydi. hozirgi kunda, harbiy, xalq, yoshlar professional va havaskorlik ashula va raqs ansambllari faol ishlamoqda.

Xalq xorlari

- xalq musiqa ijodiyotining keng tarqalgan formasi xisoblanadi. Mehnatkash xalq sayil va bayramlarda, uy va dala ishlarini bajarishda jamoa (xor) bo'lib qo'shiq aytgan, raqsga tushgan.

Shu ommaviy qo'shiqchilik bilan birga, sekin – asta ashula ansambllari ham rivojlana bordi. Bunday ansambllar bir joyda yashovchi yoki bir oila a'zolaridan iborat bo'lar edi. Shuning uchun ko'pincha bu ansambllarni oila ansambllari deb yuritilgan. Bu ansambllarda xalq qo'shiqlarini yaxshi biluvchi improvizatorlar qo'shib kuylashgan.

Xalq xorlarining hususiyatlari

- Ma'lumki, xalq xori maxalliy ijro uslubi va an'analariga, o'ziga hos repertuarga ega bo'lgan ijodiy kollektivdir. U xalq qo'shiqlarini xalq qo'shiqchilik hususiyatlarini saqlagan holda ijro qiladi. har bir o'lka viloyat yoki respublikaning xalq xori o'z repertuari, vokal tarkibi, nutq fonetikasi, ijro uslubi bilan bir – biridan ajralib turadi. Xalq xori rahbarlari xor tuzishdan oldin o'sha yerning qo'shiq ijrosi yo'llarini bilishi, o'zi kuylay olishi, qanday turdagi xor tuzishni oldindan rejalashtirishi va keyin xalq qo'shiqlarini yaxshi biluvchi kishilarni topib, taklif qilish orqali bo'lg'usi xorning asosini barpo qilishi kerak. Ammo rahbar faqat maxalliy qo'shiqchilik an'analarini bilish bilan chegaralanmay, u xalq qo'shiqchiligining asosiy xususiyatlarini bilishi shart.

Xalq xorlari quyidagi spetsifik hususiyatlari bilan akademik xorlardan farq qiladi.

-vokal strukturasi o'ziga hosligi,

-tabiiy ovozda kuylash,

-xalq polifoniyasida (ko'p ovozlarda) kuylash,

-improvizatsiya qilish va kollektiv ijodi,

-repertuarining o'ziga hosligi (xalq qo'shiqlari va xalq lad – tonligi asosida avtor tomonidan yozilgan asarlar),

-asarlarni dirijorsiz ijro etish,

-registrlarning keskin chegaralanishi,

-xorning kichik – kichik vokal ansambllarga bo'lishini va joylashtirilishi,

-xorda to'rt (Soprano, Alt, Tenor, Bas) ovozning doimiy bulmasligi, ularning jumla oxirida unison yoki oktava unisoniga birlashishi.

-ansamblning o'ziga hosligi,

-yangi qo'shiq yaratish, qo'shiqni har xil o'yin va harakatlar vositasida ijro qilish.

Xalq xorlarning asosiy hususiyatlaridan biri (hususan, havaskorlik xorlarida) – jamoa bo'lib badixa yo'lida (improvizatsiya) ijro etishdir. Bunda yakkaxon ijrochi ko'pchilikning badixa yo'lidagi ijrosi bilan boyitiladi. Xalq ijro uslubi va qo'shiqdagi asosiy kuyga jo'r bo'lishi («jo'rchi ovoz») polifonik usulning azaldan rivojlanganligini va harakterli hususiyatlaridir.

Xalq xorlarining tarkibi - xori o'zaro organik bog'langan uch ijrochilar guruhidan iborat – xor, o'yinchi va sozandalar.

Xalq xorlari, odatda, qo'shiqni dirijyor boshqaruvisiz ijro etadi. Ular struktura jihatdan har xil bo'ladi, ya'ni xonandalar soni, yuqori va past ovozlarning nisbati (ayollar va erkaklar ovozi) ma'lum bir koidaga ega bo'lmaydi. Bularning hammasi maxalliy qo'shiqchilik harakteriga ham bog'liq. Shuning uchun qam bir joyda ayollar ovozi ustunligi (sonining ko'pligi va x.k.) taqozo qilinsa, ikkinchi bir joyda erkaklar ovozigacha ko'proq e'tibor beriladi. Hozirgi kunda professional xalq xorlarining ikki turi mavjud.

Birinchi - tarkibida yuqori soprano va pastki bas ovozlarga ega bo'lmagan, biroq ovozlarning (tor) zich joylashgan o'rta diapazonli xorlar. Bu turdagi xorlarning diapazoni ikki oktavadan oshmaydi. Yuqorida eslatilgandek, ayollar past (ko'krak), erkaklar esa tenor va bariton (yuqori) ma'lum notagacha registrda kuylaydilar. Soprano o'rnida ham alt ovozi qo'llaniladi. Umuman, ayollarning pastki registrda kuylashi tabiiy nutq bilan bog'liq.

Ikkinchi - keng diapazonli, ovozlarning keng joylashgan va tarkibida deyarli hamma ovozlarning bor aralash xorlar. Xorning diapazoni uch oktavagacha etadi. Bu xorlarda ayollar birmuncha yuqori registrda kuylashga odatlangan va bu xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ular ovozlarning keng va tor joylashtirilgan variantlarida kuylashlari mumkin. Ma'lumki, xorda yuqori (soprano) ayollar ovozi bo'lmasa, ayollar

ko'krak registrida (tabiiy) kuylashga moslashadi va miskt tovushlardan foydalanganda ovozda «ochiqlik» («oq tovush») paydo bo'ladi.

Ba'zi o'rta ovoz diapazoniga ega xonandalar kuylaganda ovozlari dag'allik seziladi. qobiliyatli xonandalar yaxshi ovozga ega bo'lishlari uchun hech qachon zo'riqmasdan, baqirmasdan doimo bir tekis va kuchli tovushda kuylashlari kerak

Hozirgi davrda xalq xorlari ijodiy faoliyatida xor diapazonini kengaytirish, ovoz madaniyatini o'stirish, yuqori registrda bosh rezonatorlardan foydalanib tovushni «yig'ib» (sal niqobdor qilib) chiqarish tendentsiyasi sezilib bormoqda. Shuningdek, xalq xorlari repertuarining boyishi va kontsert faoliyatining kengayishi ularning vokal strukturasiga ancha o'zgartirishlar kiritdi. Professional xorlarda yangi asarni o'rganish jarayonini tezlashtirish uchun xorni to'rt guruhga (partiyaga) bo'lish maqsadga muvofik ekanligi tajribada tasdiklanmoqda.

Xalq xorlari professional va havaskorlik xorlarga bo'linadi.

Professional xalq xorlari

- havaskorlik xorlari ijodiy yutuqlarga erishish natijasida professional xorlarga aylandi.

Professional xorlarning asosiy ishi – xalq o'rtasida keng kontsert – ijrochilik faoliyati olib borish, o'zlari ijod qilayotgan viloyat, o'lkadagi iste'dodli yosh xonanda, raqqosa va sozandalarga otaliq qilishdir. Professional xalq xorlarining soni taxminan 40 – 50 kishidan iborat bo'lib, odatda ayol xonandalar ko'pchilikni tashkil qilishadi. Professional xalq xorlari o'rganilgan partitura bo'yicha improvizatsiyasiz kuylaydilar.

Xalq xorlarida muntazam ravishda vokal tarbiya ishlari olib boriladi. Ovozni tarbiyalash esa uning yuqori registrda (bosh rezonator bilan) «sal niqobdor» qilib kuylash va ko'krak registrdan bosh registrga o'tishdagi tovushlarni silliqlashga va diapazonning kengayishiga yordam beradi. Xalq xorlarida ovozlarni joylashtirish to'g'risida aniq bir koida yo'q. Har bir jamoa xorning tarkibiga (ovozlarga) qarab, maxalliy ijro an'analari xisobga olib joylashtiradi. Ularning diapazoni ham turlicha bo'ladi.

Havaskorlik xalq xorlari

- Bugungi kunda qishloq, tuman va shaharlardagi madaniyat saroylarida yoshlar, talabalar va har –xil milliy jamoalar faol ishlab turibdi.

Keyingi yillarda havaskorlik xalq xorlarida ham partitura bo'yicha improvizatsiyasiz kuylash odat tusiga kirmoqda. Asar nota partiyalarisiz, raxbarning (yoki tajribali qo'shiqchi) ovozidan o'rganiladi. O'rganilgan qo'shiq sahnada hech qanday improvizatsiyasiz ijro kilinadi.

Havaskorlik xalq xorlarini 20 – 30 kishidan tuzish mumkin. Maxalliy qo'shiqchilik uslubini va ko'p xalq qo'shiqlarini biladigan havaskorlar xorning o'zagini tashkil qiladi.

Ba'zi joylarda yoshlardan xalq xorlari tuzib, ular bilan ishlaganda, maxalliy uslub atrofida o'ralashib qolmay, balki bir necha viloyat qo'shiqchilik an'analaridan ularning ifoda formalaridan ijodiy foydalanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy xalq xori ijrochiligida yana ikki shakl, ya'ni bolalar xalq xori va musiqa o'quv yurtlarining o'quv xorlari mavjud.

Keyingi yillarda xalq xori ijrochiligiga e'tibor oshmoqda. Xalq xorlarining istiqboli va xalq ijrochiligi muammolari haqida ilmiy – metodik ishlar yaratilmoqda. Professional va havaskorlik xalq xorlarini amaliy boshqarish, ya'ni professional kadrlar tayyorlash maqsadida Madaniyat institutida, Konservatoriyada va Universitetlarda o'quv xorlari tashkil qilingan.

Shunday qilib xalq xorlari o'z o'lka yoki viloyat qo'shiqchilik an'analarini rivojlantirgan holda, umumxalq xor ijrochiligi madaniyatiga hissa qo'shadilar. O'quv xorlari o'zlarining asosiy ishlari bilan birga, keng kontsert–ijrochilik faoliyati va xalq qo'shiqlarini to'plash, notaga yozib olish kabi tashkiliy vazifalarni ham olib boradilar.

II bo'lim

2.1 O'quv jarayonida qollash uchun uslubiy(metodik) ko'rsatmalar

Dijorlik fanidan o'quv jarayoni to'rt yil davomida individual darslar shaklida olib boriladi. O'quv rejasiga muvofiq, har bir semestr kafedrada eshitish-kollokvium, test yoki imtihon bilan yakunlanadi. Sinfda o'qituvchi bilan birgalikda barcha sinflarda professional jo'rnavor ishlaydi va pianinoda talabanning asarini ijro etadi.

Mashg'ulotlar zamonaviy umumiy pedagogik va maxsus dirijyor-xor o'qitish usullaridan foydalangan holda o'tkazilishi kerak:

- tushuntirish va illyustrativ (hikoya, ko'rsatish, ovoz yozuvi yoki pianino ijrosi shaklida partitura tinglash);
- ko'rsatma va reproduktiv (mashqlar, individual dirijyorlik texnikasini o'rganish);
- muammoli (badiiy talqin, ijro kontseptsiyasini yaratish, badiiy tasvirga adekvat ijrochi ifoda vositalarini izlash, zarur nazariy va musiqiy adabiyotlarni, audio yozuvlarni o'rganish);
- bilimlarni nazorat qilish va baholash (har bir darsda uy vazifalarini tekshirish, har yili kafedrada mazmuni yangilanib turiladigan topshiriqlar, testlar va imtihonlarni zarur va aniq tanlash);
- musiqali quloq yordamida partituraning o'zlashtirish, fortepianoda chalish, musiqiy-nazariy, vokal-xor va ijro tahlili;
- xor ovozining ijro modelini yaratish;
- Dirijyorlik apparatining qo'l texnikasi va plastikligini ishlab chiqish;
- xor bilan ishlash rejasini ishlab chiqish;
- xor mashqida olingan natijalarni tahlil qilish va xor ovozini bashorat(prognozlash) qilish;

Dirijyorlik darslari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- dirijorning erkinligi,
- dirijorning grafik ravshanligi, harakatlarning tejamkorligi,
- yaqinlashib kelayotgan musiqadan oldinda bo'lishi,
- badiiy maqsadga muvofiqligi.

“Dirijorlik” o’quv fani xormeysterning kasbiy fazilatlarini, xor jamoasini boshqarish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni shakllantiradi, yaxshi badiiy didni tarbiyalaydi, tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko’nikmalarini, mustaqil fikrlash va ijodiy mehnat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bajarish niyatlarini uzatish jarayoni maxsus qo'lda ishoralar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Dirijyor tadqiqotchilar ushbu hodisaning uchta: musiqiy, psixologik va fiziologik asosiy jihatini - ta'kidlaydilar. Musiqiy tomondan, dirijyorlik - bu musiqaning asosiy elementlarini ifodali imo-ishoralarda ularning umumiyliigi va umumlashtirilishida aks ettirish jarayoni. Dirijyorning imo-ishorasi alohida harakatlardan emas, u musiqa elementlarining rivojlanish va shakllanish mantiqidagi bir xil jestikulyasiyasidan kelib chiqqan mantiqiy bog'langan, funksional chambarchas imo-ishoralardan iborat.

Psixologik nuqtai nazardan- dirijyorlik bu inson tanasi harakatlarining ifodaliligiga asoslangan musiqaning hissiy tajribasi jarayoni: qo'l imo-ishoralari, yuz va ko'z ifodalari. Dirijyorning har bir imo-ishorasi hissiy jihatdan rangli, psixologik jihatdan sog'lom, tabiiy ravishda ifodalangan bo'lishi kerak.

Fiziologik nuqtai nazardan-dirijorlikning to'g'riligi miya nerv hujayralarini qo'zg'atish jarayonlarining davriyligi va ketma-ketligi bilan belgilanadi, hamda to'g'riligini aniqlaydi, mushaklarning ishlashi-dirijyor qo'llarining antagonistlikligi(grekcha: qarshi kurashuvchi; dushman)- bir-biridan farq qilib yoki to'ldirib ishlashi, ularning muqobil ishni boshlashi va to'xtalishi, kuchlanishi va "bo'shshishi" ma'nolarini beradi.

Dirijyorlik nafaqat belgilangan dirijyorlik to'rida takti to'g'ri dirijorlik qilish ko'nikmalari va malakalarini, boshqacha aytganda, dirijyorlik texnikasini, balki unga qo'shiladigan shartlar to'plamini, shu jumladan jamoaga xayoliy va hissiy ta'sir darajasini, asarning badiiy maqsadlari, ijro mahorati va boshqalarni ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, dirijyorning xorni boshqarish momentlari o'ziga xos ketma-ketlik-reqlamenti mavjud bo'lib, aniq tartibga solinadi. Bundan tashqari, dirijyorlikning ajralmas sharti - dirijyorning irodasi mavjudligini ta'kidlash kerak, aks holda jamoaviy musiqa yaratilishi muammo tug'dirishi mumkin.

2.2 Xor-dirijorlik sinfi o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar

Zamonaviy musiqa ta'limining ustuvor vazifalaridan biri-talabalarni madaniy qadriyatlar bilan tanishtirishdir. Xor-dirijorlik mashg'ulotlarida kuylash-har doim estetik tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri bo'lib kelgan, shuningdek, bolalar va kattalarning o'zini o'zi ijodiy anglashning eng qulay shakli bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shu munosabat bilan xor dirijyorining faoliyati nafaqat xor ijrochiligini yanada

rivojlantirishga, balki jamiyatning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan noyob shaxsni tarbiyalash zarur. Ta'limning individual xususiyatini hisobga olgan holda, dirijyor-xormeysterni tarbiyalash jarayonini ajralmas shaxsiy ta'lim sifatida ko'rish mumkin. Shaxsiy yo'nalish quyidagi tarkibiy qismlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

- his-tuyg'ular, fikrlash, xotira;
- musiqiy qiziqishlar, didlar, ehtiyojlar, moyilliklar, e'tiqodlar;
- bilim, malaka, ko'nikma va odatlarni o'z ichiga olgan musiqiy tajriba;
- individual ijodkorlik, musiqiylik;
- individual faoliyatda ijodiy salohiyatni ochib berish imkoniyatini nazarda tutuvchi musiqiy va ijodiy faoliyat.

Akademik xor dirijyori kasbining o'ziga xos xususiyatlari bor, bu xormeysterlarni tayyorlashga ma'lum talablarni qo'yadi. E'tibor bering, bu erda texnik mahorat va texnikani o'zlashtirish zarurati shubhasizdir. Bayramlar va ommaviy qo'shiq tadbirlarda qo'shma ansambllarni boshqarishda yuqori professional dirijyorlik mahoratidan voz kechib bo'lmaydi. Ammo bundan tashqari, xormeyster xor bilan kundalik ishda, asarni o'rganishda va uning ustida ishlashda doimiy ravishda dirijyorlik usullaridan qo'lda foydalanishi kerak. Shunday qilib, dirijyorlik texnikasini yuqori darajada egallash asarning repetitsiya bosqichini ham, kontsert namoyishini ham sezilarli darajada osonlashtiradi.

O'qituvchining talaba bilan dirijyorlik texnikasini o'zlashtirishdagi mashg'ulot jarayoni dirijyorlik texnikasini egallash maqsadi sifatida taassurot qoldirmasligi kerak. Texnik mahorat va texnikani takomillashtirishni badiiy ijro ishi sifatida ko'rish kerak. Pedagog o'quvchiga har bir texnik masalaning badiiy maqsadini doimo tushuntirib borishi kerak. Asarning badiiy obraziga imkon qadar mos keladigan shunday texnik timsoliga erishish kerak.

Dirijyorlik kursi dasturi individual o'quv shaklini nazarda tutadi. Ma'lumki, uning rivojlanish traektoriyasida kollektiv bo'lib o'tiladigan mashg'ulotlarga nisbatan bir qator afzalliklari borki, ular o'qituvchining o'quvchi bilan doimiy aloqada bo'lishi, uning shaxsiyati, ijodkorligi va imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, shaxsning xususiyatlarini belgilab berish imkoniyatiga ega. Shuning uchun dirijyorlikdagi o'qituvchining vazifalari xilma-xil, ko'p qirrali bo'lib, ular tizimlilik va istiqbollilik tamoyiliga muvofiq qurilishi kerak.

2.3 Dirijyorlik sinfi o'qituvchisining vazifalari

- 1.** O'quvchini o'quv jarayoniga qiziqitirish, ijodiy faollikni rivojlantirish;
- 2.** Ijodiy shaxsni shakllantirish, o'quvchining umumiy madaniyatini rivojlantirish;
- 3.** Musiqa olamiga tanitish, uning estetik va kognitiv qiymatini ochib berish;

4. Talabanning umumiy va musiqiy qobiliyatlarini, qo'llanma ma'lumotlarini rivojlantirish;
5. Musiqachini shakllantirish, musiqiy didni tarbiyalash va estetik ustuvorliklarni belgilash;
6. Shaxsning kuchli irodali xususiyatlariga asos solish, o`quvchining badiiy ijrochilik imkoniyatlarini aniqlash;
7. Ijrochini shakllantirish, ijrochilik sifatlarini tarbiyalash: havas, artistlik, maqsadga muvofiqlik;
8. Qo`shiqchilar jamoasi bilan badiiy muloqot va yetakchilik ko`nikmalarini singdirish;
9. Dirijyorlik texnikasining asosiy malakalarini o'rgatish;
10. Tomoshabinlar bilan muloqotga kirishishni o'rgatish va o'z dirijyorlik san'ati orqali -"so'zlay olish" zarurligini singdirish.

Dirijyorlik texnikasi elementlari bilan tanishishni uch bosqichga bo'lish tavsiya etiladi:

1-bosqich - dirijyor apparatini o'rganish va sozlash: tananing holati (ko'krak, elkalar), bosh (yuz, ko'zlar), qo'llar, oyoqlar. 1 kurs (I semestr) uchun o'tkaziladi;

2-bosqich - xor asarining mazmuni, xarakteri va musiqiy ifoda vositalariga mos ravishda dirijyorlikning amaliy usullarini o'rganish va o'zlashtirish. I - II kurslarda (II - IV semestrlarda) amalga oshiriladi;

3-bosqich - dirijyorlik talqini san'atini egallash, "mislsiz qo'l san'ati" erkinligi, "qo'l bilan, so'zsiz ishonitirish" qobiliyati. Bu vazifalar II kursning IV semestridan boshlab butun o'qish davrida amalga oshiriladi.

Dirijyorning ishorasiga qo'yiladigan talablar:

- yorqinlik va ifodalilik;
- vazminlik va qisqalik;
- aniq va konkret;
- irodaviy va hissiy tamoyillarning mavjudligi;
- erkinlik va tabiiylik;
- tovush tarkibi;
- ish jarayonida korrektirovkani tuzatishga e'tibor qaratish.

Eng yuqori malakali mutaxassis tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli bajarish uchun dirijyor o'qituvchidan o'quv jarayonini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Har bir o'quv semestr boshida o'qituvchi har bir talabaga tabaqalashtirilgan yondashuvni hisobga olgan holda individual rejalar tuzishi kerak. Bunday yondashuvda talabanning tabiiy ma'lumotlarini, uning musiqiyliigi, tayyorgarligi, kasbiy rivojlanishi darajasini hisobga olish kerak. Individual ravishda rejalashtirilgan musiqiy material (repertuar) dasturda ko'rsatilgan talablarga muvofiq qoldirilishi, ushbu kurs dasturining barcha bo'limlarini qamrab olishi va uni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tartibida tanlanishi kerak. Ba'zi hollarda, maqsadga muvofiq bo'lsa, keyingi kurs repertuaridan individual ishlarni individual rejaga kiritish mumkin. Biroq, dasturning

bunday ortiqcha ta'rifi pedagogik jihatdan asoslanishi va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kerak. "Dirijorlik" fanining repertuariga qo'yiladigan asosiy talab uning xilma-xilligidir. O`qitishning umumiy pedagogik tamoyillaridan kelib chiqib shuni ta`kidlash kerakki, xor dirijyorligi kursida o`rganiladigan musiqiy repertuar turli uslubdagi (individual, milliy, tarixiy va hokazo) asarlar, faktura va strukturaviy komponentlardan iborat bo`lishi kerak. Bundan tashqari, o`zbek, rus va xorijiy xor klassiklari asarlarini, opera va kantata-oratoriya janrlarining eng yaxshi namunalarini, shuningdek, kompozitorlarining musiqiy folklorga asoslangan asarlarini dirijorlik qilish bo'yicha o'quv dasturiga kiritilgani nafaqat texnik ko'nikmalarni egallashga, balki talabalarning estetik rivojlanishiga ham yordam beradi. Dirijyorlik mashg'ulotlarini tashkil qilishda bir vaqtning o'zida tabiatan va dirijyorlik-ijrochiligi bo'yicha farq qiladigan ikkita yoki uchta xor asari ishlarni rejalashtirish tavsiya etiladi. O'quv vaqtining bir qismini pianinoda partitura chalish, xor partiyalari, akkordlar va vertikal kuylash, shuningdek, o'rganilayotgan musiqiy materialni og'zaki tahlil qilishga bag'ishlanishi kerak. She'riy matnni yodlash, uni ifodali o'qish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi kerak. Shundan keyingina talabaga xor partiturasini imo-ishora bilan boshqarishning eng samarali usullari va mashqlaridan foydalangan holda dirijorlik qilishga ruxsat beriladi.

2.4 Musiqiy asarlarni o`rganish uchun tavsiyalar

Dirijyorlikning qo'lda va texnik tomonini o'zlashtirish jarayoni dirijyorlik texnikasi samaradorligi tamoyillariga doimiy rahbarlik qilish zarurligini ta'minlaydi: ovoqli harakat, tovushni oldindan bilish, imo-ishoraning grafik ravshanligi, harakat erkinligi va badiiy maqsadga muvofiqlik. Asboblarni sozlashning umumiy tamoyillari sifatida tanilgan ushbu tamoyillarni qat'iy amalga oshirish talabaning to'g'ri yo'nalishda harakat qilishiga, ularning rivojlanishida yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Asar ustida ishlash jarayonini to'g'ri tashkillashtirish juda muhimdir. Dirijyor pedagogikasi ushbu muammoni hal qilish uchun oqilona yondashuvlarni ishlab chiqdi. Dirijyorlik sinfida musiqa asarini o`rganishning butun jarayoni odatda uch bosqichga bo`linadi: **tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.**

Birinchi bosqich - dirijyorning partitura ustidagi mustaqil ishi - asarni tinglash va matnni vizual tahlil qilish orqali dastlabki tanishuvga bag'ishlanadi. Bajariladigan ishlar: asar va uning muallifi haqidagi adabiyotlarni o'rganish bo'ladi. Asarni turli ifoda vositalari - tonal-garmonik, metro-ritmik, teksturali, agogik, tembr-registr, dinamik, artikulyar va boshqalarning o'zaro ta'siriga asoslangan yagona intonatsiya tizimi sifatida tahlil va tadqiq qilish. Asarning shakli, orkestr uslubi, janr xususiyatlarini tahlil qilish. Asarni har tomonlama o'rganish va tahliliy ish asosida o'z talqiningizni shakllantirish tamoyillari: Partituraning manual(dirijorlik aparatining harakatlari orqali) o'zlashtirish. Asarning majoziy va hissiy mazmunini aks ettirish uchun expressiv(majoziy ma'noda ishlatiladigan so'z yoki ibora) vositalarni izlash.

Natijada ishning kontseptual(maqsadi, prinsiplari, elementlarini ta'riflash,) va rasmiy konturlarining eskizi bo'lishi kerak. Hech qanday holatda bu bosqich ahamiyatsiz bo'lib tuyulishiga qaramay, e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Ikkinchi bosqich - asarning hissiy-majoziy mazmuniga bosqichma-bosqich kirib borish, ijro tushunchasini shakllantirish va uni amalga oshirishning qo'llanma va texnik vositalarini o'zlashtirish bilan ishni chuqur, batafsil o'rganish. Eshitish ichidagi taqdimot dirijyorning imo-ishorasiga nisbatan birlamchi bo'lib, musiqani bilish uning qo'lda va texnik mahoratidan oldin bo'lishi kerakligi sababli, asar ustida ishlashning ikkinchi bosqichi uni sinchkovlik bilan o'rganishdan boshlanadi. Talaba uchun asarni o'rganishning eng qulay usuli - bu ichki eshitish yordamida o'zlashtirish bilan hamda, faol ravishda to'ldiriladigan pianino yordamida. Ushbu ishning natijasi musiqani aqliy ravishda takrorlash qobiliyati bo'lishi kerak, buning asosida faqat uning qo'lda timsoli amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda, asosiy vazifa ishni diqqat bilan va yoddan o'rganishdir. Bunda eng muhim rolni diqqat va fidoyilik, xatoni ko'rish, uning sababini aniqlash va uni bartaraf etish va belgilangan maqsadga erishishning eng samarali usullarini topish qobiliyati bajaradi.

Ishning boshida talabanning imo-ishoralari juda taxminiy bo'ladi. Ammo asta-sekin, ular musiqaga o'rganib qolgani sayin, ular tobora ko'proq ekspressivlik⁴ning yangi elementlari bilan to'yingan bo'lib, ideal modelga tobora yaqinlashib boradi. Shu bilan birga, vosita harakatlari asta-sekin birlashtirilib, avtomatizmga etadi. Dirijorlik, ong tomonidan boshqariladigan faoliyatga o'z-o'zidan davom etadigan jarayonga aylanadi, bunda ong ijodiy vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'ladi.

Asar ustida ishlashning uchinchi bosqichi yaxlitlikka erishish bosqichidir. Uning asosiy mazmuni o'zaro aloqadorlik, bo'limlar, konstruksiyalarning o'zaro bog'liqligi, ular orasidagi o'tish jarayonlarining rivojlanishi, ularning agogik, dinamik va nihoya, obrazli-semantik munosabatini aniqlashdan iborat. Bu jarayonda alohida konstruksiyalarning kulminatsion nuqtalarini va butun ishning asosiy cho'qqisini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bu barcha ishlarning zaruriy sharti musiqani yoddan

⁴ Ekspressivlik (tilshunoslikda) — til birligining semantikstilistik belgilari majmui; til birligining aloqa so'zlashuv jarayonida so'zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sub'yektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo'la olishini ta'minlaydi. E. tilning barcha sathlari birliklari uchun xosdir. Fonetik ekspressiv vositalar sifatida so'z tarkibidagi undoshlardan birining qo'shaloq holda yoki biror unlining cho'ziq talaffuz etilishi, urg'uning o'rnini o'zgartirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Morfologik vositalar sifatida keng miqyosdagi erkash kichraytish qo'shimchalari (sub'yektiv baho ifodalovchi qo'shimchalar)ni ko'rsatish mumkin (oyi oyijon, uka ukaginam va boshqalar). Leksik ekspressiv vositalarga o'z haqiqiy ma'nosidan tashqari uslubiy (salbiy yoki ijobiy) bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, undov so'zlar va kuchaytiruv yuklamalari kiradi (mas, "qiltiriq" so'zi ozg'inlikni salbiy jihatdan ifodalaydi, baholaydi). Sintaktik sathda esa E. odatdagi so'z tartibini o'zgartirish, elliptik tuzilmalardan foydalanish, so'z takrorlari orqali ta'minlanadi. Aloqaso'zlashuv jarayonida lisoniy ekspressiv vositalar bilan parallel ravishda, nutq ekspressivligini kuchaytirishga ko'mak beruvchi ko'plab paralingvistik (nolisoniy) vositalar (tovushning balandligi va tembri, nutq sur'ati, mimika, imoishora) ham qo'llanadi. E. bevosita inson histuyg'ularini ifodalash bilan bog'liq bo'lganligi uchun uni emotsionallik (hissiyot, emotsiyani ifodalovchi so'zlar va ulardan foydalanish)dan ajratib tasavvur etish qiyin. Hatto ba'zi tilshunoslarning asarlarida E. va emotsionallik kategoriyalari bir xil hodisa deb talqin qilinadi.

Ne'mat Mahkamov.

bilishdir, bu asarni to'liq yoritishni va uning barcha tarkibiy va ifodali tarkibiy qismlarini moslashtirishni, bo'ysunishni osonlashtiradi. Bu erda hamma narsa ijro kontsepsiyasini amalga oshirishga, musiqaning obrazli mazmunini uzatishga bo'ysunadi. Bu esa o'quvchidan o'zining barcha ijodiy kuch va imkoniyatlarini maksimal darajada safarbar etishni talab qiladi va shu bilan ularning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

“Dirijorlik” fanini o'rganish talabalar mehnatining quyidagi turlarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

- o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha o'quv va ijro repertuarini o'rganish va ular bilan ishlash;
- xor bilan amaliy ishlashga tayyorlanish;
- dirijyor sifatida xor ishtirokida kontsertga tayyorgarlik;
- o'tmish va hozirgi davrning taniqli xor jamoalarining fonografik merosini o'rganish;
- konsert tomoshalariga qatnashish va xor ijrolarini eshitish tahlili;
- san'at tarixi va ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish;
- kollokviumlarda qatnashishga tayyorlanish;
- bajarilgan ishlar uchun annotatsiyalar tayyorlash.

O'qishga ijobiy motivatsiya, o'quvchilarning dirijyorlik sinfidagi ishining muntazamligi ko'p jihatdan nazoratning aniqligi, uning shakllari va usullariga bog'liq. Dirijyorlik sinfidagi individual darslar o'qituvchiga har birida talabaning uy vazifasi natijalarini tekshirish imkoniyatini yaratadi. Bunga talabalar tomonidan o'qituvchining topshiriqlarini maxsus daftarga yozishlari, shuningdek, ishlarni tayyorlash vaqtini rejalashtirish yordam beradi.

Hisobot konsertlarining turli shakllari:

- talabalar ishining natijalarini davriy ravishda kengroq auditoriyaga namoyish etish;
- o'z guruhi talabalar oldida kredit yoki imtihonga topshirilmagan ishlarni bajarish; - dirijyorlarga semestrda ish natijalarini ko'rsatish;
- akademik kontsert shaklida oraliq attestatsiyalar;
- repertuarni tinglash;
- partituraning ijro etish va xor qismlarini kuylash;
- ijodiy tanlovlar badiiy mahoratni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish uchun muhim rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Davriy nazorat o'quvchining nisbatan katta hajmdagi materialni o'zlashtirishdagi o'quv faoliyatini tekshirishdan iborat. Davriy nazorat rejalashtirilgan dasturning bir qismini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan nazorat darslari shaklida amalga oshiriladi. Nazorat darslarida talaba mustaqil ishlash, texnik o'sish, musiqa materialini o'zlashtirish malakalarini ko'rsatishi shart.

Mustaqil ishlarni bajarish dars davomida olingan bilim va dirijorlik usullarini mustahkamlashga qaratiladi. Shu bilan birga, fikrlashning moslashuvchan shakllarini


rivojlantiradi va ijroda badiiy ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ish ko'nikmalari - kuchaytirilgan eshitish nazorati, topshiriq bo'yicha oldindan fikr yuritish va uni takrorlash oralig'ida aniqlashtirish, yutuqlar va xatolarni tahlil qilish, o'z-o'zini kuzatish (diqqatni, his-tuyg'ularni nazorat qilish), ish sifatini doimiy ravishda dirijyorning ishorasi(jest)ni yaxshilashda namoyon bo'ladi. Texnik o'sish yuqori texnik darajadagi ishlarni bajarishda ifodalanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: dirijyorning ishorasi(jest)ni yaxshilash, metrik asosning sifatini yaxshilash, o'lchamlarni, templarni, dinamik ko'rinishlarni va boshqalarni murakkablashtirish. Musiqiy materialni o'zlashtirish-musiqiy matnni yoddan ishonchli bilishni, ijroning metro-ritmik barqarorligini, dinamik rejaning asar xarakteriga mos kelishini, asarning musiqiy-badiiy qiyofasini bera olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Oraliq kreditlar va imtihonlar uchun talabalar nazariy asoslarni majburiy bilgan holda dastur talablariga muvofiq musiqa ishlarini olib borishlari kerak. Repertuar o'qituvchi tomonidan talabalarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda tanlanadi. Sinov va imtihonni o'tkazish tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan majburiy uslubiy muhokama bilan tabaqalashtirilgan yondashuvni o'z ichiga oladi.

2.5 Qo'shiqchilik ovozlari va ularning tavsifi

Nihoyatda nozik musiqiy ifodalash xususiyatlariga ega bo'lgan, o'zining turli-tuman rango-rang tembri(tusi)ga boy bo'lgan inson ovozi – murakkab musiqa asbobidir. Shuning uchun ham ko'pincha inson ovozi «gapirib turuvchi musiqa asbobi», deb nomlanadi. Inson ovozi apparati asosan uch qismga bo'linib, bular: – nafas olish organlari;

- hiqqildoq;
- rezonatorlar bo'lib, bir-biriga uzviy bog'langandir.



Inson ovozi juft va toq hiqqildoq tog' aylari pardalarining muskuli yordamida bir-biriga bog'lanadi. Nafas ovoz pardalariga urilib, ularni tebratadi va tovush chiqaradi. Ovoz pardalari lotinchada—«lig vocale» deb nomlanib, ular aniqlanishining asosiy tamoyillari:

- xorda qo'shiq ayta oladigan ovoz turi;
- xorga zarur musiqa qobiliyati (ya'ni, eshitish, usul ushlash va musiqiy xotira)ga ega bo'lgan insonlar ovozi;
- ovoz sifatlari (tembr, diapazon) mujassam bo'lishi darkor.

Xonanda ovozi o'z navbatida jinsiy tuzilishga qarab—bolalar, ayollar va erkaklar ovozlari bo'linadi.

Bolalar ovozining xususiyatlari.

Bolalarning ovoz boylamlari kattalar ovoz boylamlaridan ancha farq qiladi. Ularning juda nozikligi, kichikligi tufayli bolalar ovozi baland pardalarda jarangdor yangraydi. Bolalar ovozi kuchi past bo'lsa-da, yuqori registlarda yengil va jarangdordir. Xormeysterlardan bolalar badiiy jamoasini kuylata olish, rivojlantirish katta mahorat talab etadi. Bolalar ovozi o'z navbatida – soprano yoki diskant (og'il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ovozigacha bo'linadi.

- Soprano yoki diskant, deb bolalarning yuqori ovozigacha aytiladi. Yengil, o'zgaruvchan yumshoq yangraydigan ovoz bo'lganligi sabab, qo'shiqlarda asosiy kuy yo'lini ta'sirchan ijro etadi. Uning diapazoni birinchi oktava «do»dan ikkinchi oktava «sol»gacha bo'lgan oraliqni egallaydi;

– Alt ovozi esa bolalar ovozining pastki ovozi bo'lib, bir muncha yo'g'onligi va kuchli tembrga yaqinroqligi bilan ajralib turadi. Diapazoni – kichik oktava «sol»dan ikkinchi oktava «re»gacha bo'ladi.

Mutatsiya davri

Xormeyster bolalarning ovozini doimo nazorat qilib borishi kerak. Bola yoshi ulg'aygan sari turli jinsiy o'zgarishlar, ya'ni: – ruhiy; – fiziologik o'zgarishlarga uchraydi. O'g'il bolalarda ko'proq sezilib turadigan «mutatsiya» (rasta bo'lish, jinsiy o'zgarish) davrida ovoz diapazoni chegarasi keskin qisqaradi. Ovozi bo'g'ilib, intanatsiya tushunarsiz, ovozi tez-tez charchaydigan bo'lib, ko'pincha bu davr 12–14 yoshlarda o'tib kechadi. 17–18 yoshga yetib, o'spirin ovozi o'z yangi tembri, yangi diapazoni, ya'ni katta kishilar ovoziga o'zgarib, 20–22 yoshlarda to'liq shakllanadi. Qiz bolalarda ham mana shu yoshda o'zgarishlar bo'lib, o'g'il bolalarga nisbatan ancha yengil, ovozi mutatsiya davrida takomillashib, ovoz diapazoni kengayib boradi.

Ayollar ovozining tavsifi va ularning turlari

Ayollar ovozi ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: Soprano va alt ovozlari. – Soprano – italyancha so'z bo'lib, «yuqori» degan ma'noni anglatadi. Bu ovoz o'z navbatida quyidagi ichki bo'linmalarga ega: koloratura, lirik koloratura, lirik soprano, lirik-dramatik va dramatik soprano, lirik va dramatik metsso-soprano kabilardir.

– Alt – ayollar pastki ovozi bo'lib, metsso-soprano va kontralto, deb yanada aniqroq ta'riflanishi mumkin.

Erkaklar ovozining tavsifi va ularning turlari

Erkaklar ovozi asosan quyidagilarga ajratiladi:

– Tenor – lotinchada «teneo» – «ushlayman» degan ma'noni anglatadi. Erkaklarning yuqori ovozi bo'lib, umumiy diapazoni ikki oktavani tashkil etadi – «do» kichik oktavadan «do» ikkinchi oktavagacha. Tenor ovozining asosiy turlariga – altino-tenor, lirik tenor, lirik-dramatik va dramatik tenor kiradi.

– Bas ovozlari guruhiga – bariton, bas va oktavachi baslar, erkaklarning past ovozlari kiradi.

III bo'lim

3.1 Vokal-xor madaniyati

Xor jamoasining ijrochilik malakasi vokal-xor ijrochilik mahoratlari bilan uzviy bog'liq bo'lib – hamohanglik, soz, talaffuz, badiiy ifoda vositalari, nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun jamoa ijro (konsert) paytida albatta tik turgan holatda bo'lishlari lozim. Repetitsiyalar (mashqlar) paytida esa o'tirib mashg'ulotlar o'tkazilsa ham bo'laveradi. Bunday holatda xonandalardan gavdani to'g'ri tutish, yuz, bo'yin, yelka mushaklari erkin bo'lib, kuylayotgan paytda xalqum va pastki jag' tomoqni siqmasligi, boshini erkin tutishi tavsiya etiladi. Ma'limki, inson nafas olish organlari orqali nafas olib tovush hosil qiladi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi va nafas tez olinib, sekin chiqariladi.

Nafas olish bir necha turga bo'linadi:

- pastki qovurg'alar kengayishi orqali nafas olish;
- yelka kengayishi orqali nafas olish;
- qorin bilan nafas olish;
- ko'krak bilan nafas olish;
- zanjir uslubida nafas olish.

Tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi.

Rezonatorlar:

bosh rezonator – yuqorigi;

ko'krak rezonatori – pastki bo'lib, o'zining hajmini artikulyatsiya orqali o'zgartirib turadi. Ovozni yo'lga qo'yishning o'ziga xos murakkab tomonlari mavjud: to'g'ri tovush hosil qilish va uni shakllantirish. Professional akademik xorda «ochiq» (oq tovush) bo'lishiga xormeysterlar asosan yo'l qo'yishmaydi. Lekin milliy ijrochilik uslublari bilan yaqinlashtirilgan yarim ochiq tovush hosil qilish ayrim musiqiy badiiy jamoalarga xosdir. Ayniqsa, folklor bilan bog'liq bo'lgan qayta ishlangan asarlarni shu uslubda ijro etish keng tinglovchilar ommasiga ma'quldir. Xor ijrochiligida legato, ya'ni ohangning bir tekis bog'lanishi; nonlegato – alohida bog'lanmasdan ijro etish (tovushlar orasida nafasni ushlab orqali hosil qilish); stakkato – tovushlarni uzib, qisqa ijro etish (tovushlar orasida nafas olmasdan) kabi ijro uslublari uchraydi.

3.2 Xorni sozlash

Xor ijrochilik malakasining yetuk darajadagi ko'rinishi uning sozi va hamohangligidadir. Xonandalarning vokal-xor tarbiyasida, ularning intonatsion tovush balandligini aniq o'zlashtirishlari darkor. Xorning yaxshi sozlanganligi xonandalarning musiqaviy malakasi, musiqiy o'quvi va xonandalik malakasini qanday darajada o'zlashtirganligi, emotsional holati, hamda asarning murakkabligiga bog'liqdir. Xor sozi asosan ikki turli bo'lib, ularga:

– melodik-gorizontal soz;

– garmonik-vertikal umumiy xorning sozi kiradi.

Xor sozining sof, toza bo'lishi xor ijrochiligining joylashuvi, xona yoki sahnaning akustik holatiga ham bog'liqdir. Xor san'atining mashhur arboblardan P.Chesnokov, K.Pigrov xor ijrosining yetuk professional san'ati a kapella bo'lib ijro etish xor sozini «charxlashda» uning muvozanatini tekis saqlanishida, xor ovoziningsadolanishida uchraydigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishdagi eng to'g'ri yo'l, deb bilardilar.



Umuman to'g'ri intonatsiya qilish va yaxshi ijro texnikasiga ega bo'lish – xor sozida soxtalik kabi kamchiliklarning oldini oladi va aniq sozga zamin yaratadi. Xor rahbari butun ish jarayonida xor ijrochilariga intervallarni o'z ladida ushlagan holda tushunib ijro qilishi, nafasni to'g'ri olish va sarflashni tinimsiz o'rgatib borishi lozim. P.Chesnokov iborasi bilan aytganda, xor sozi «ko'p qirrali tosh»ga o'xshagan bo'lib, unga tinimsiz mehnat orqali erishish mumkin. Xorni sozlab olish uchun namuna sifatida B.Umidjonovning «Go'zal» a kapellasini tavsiya etish mumkin. Har bir xor jamoasi rahbari xorni sozlash maqsadida hamisha shunga o'xshash asarni ijro repertuariga kiritib borishi yaxshi samara beradi.

GO'ZAL

M.Turobov she'ri

B.Umidjonov musiqasi

Moderato

The musical score is for a choral piece titled "GO'ZAL". It is composed by B. Umidjonov, with lyrics by M. Turobov. The tempo is marked "Moderato". The score is in 3/4 time and G major. It features four vocal parts: Soprano (S.), Alto (A.), Tenor (T.), and Bass (B.). The score includes dynamic markings such as *pp* (pianissimo) and *mf* (mezzo-forte). The lyrics "U..." are written under the vocal lines. The score is divided into two systems. The first system shows the vocal parts with lyrics "U..." and dynamic markings "pp" and "mf". The second system shows the vocal parts with lyrics "U..." and dynamic markings "pp" and "mf". The bass part has lyrics "bum," under the notes.

mf

Ko'z u-zay dey-man ko'-zing-dan ko'z u-zol-may-

u... u... u... u...

bum, bum, bum, bum,

man, go'-zal,

ko'z u-zol-may-man, go'-zal,

f (p)

Ko'z-la-ring-ni

u... u... u...

bum, bum, bum,

seh-ri bor-mi, vah, bi-lol-may-man, go'-zal.

Shar-hi ho-lim-

p

ay-lay de-sam,
mf

Rad ja-vob ayt-
f (p)

-ni yo-zib, sen-ga ba-yon ay-lay de-sam,

sang, na bo'l-gay, deb yo-zol-may-man, go'-zal.

Nay-la-yin, do-
mf

Nay-la-yin, do - im xa-yo - lim - da xa - yo - ling ay-la-nur,

mf

im xa - yo - lim - da xa - yo - ling ay-la-nur,

Bu xa - yo - lim - ni bi - rov - ga hech de - yol - may - man, go' - zal.

f

Be-da-vo dard ga yo' - liq - dim, sev-gi-lim, rom et-ma-sang, O'l-di-rur bu

mf

dard me - ni, har - giz tu - zal - may - man, go' - zal.

bum, bum, bum.

3.3 Xor dirijorlik mashg'ulotlarida repertuarni shakllantirish

Har qanday musiqiy badiiy jamoada repertuar masalasi eng asosiy omil hisoblanadi. Repertuar xonandalarni ham, tinglovchilarni ham g'oyaviy va estetik nuqtai nazardan tarbiyalaydi. Aks holda badiiy jamoa tuzishdan maqsad yo'qdir. Maqsad bo'lmagandan so'ng vazifalar ham belgilanmaydi, albatta. Repertuarga kiritilgan asarlar badiiy barkamol bo'lishi shart. Yaxshi tuzilgan repertuar jamoaning ijodiy muvaffaqiyati zamini, deb ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Xor jamoasining imkoniyatiga to'g'ri keladigan asarlarni tanlash, vaqt o'tgan sari oson asarlardan murakkablariga qarab intilib borish uning ijodiy yuksalishida muhim o'rin tutadi. Repertuarda rang-baranglikka erishish yaxshi natijalarga olib keladi. Jumladan, mumtoz xor asarlarini ijro etish xor jamoasining ijrochilik texnikasini oshiradi, mahoratini yuksaltiradi.

Yangi asarlar ustida ishlash bosqichlari:

- dirijorning asarni mustaqil o'rganishi va xor bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rishi; – musiqiy asarni jamoaga o'rgatish;
- konsertda ijro etish va repertuarda muntazam ushlab turish.

3.4 Mashg'ulotlarida qo'llaniladigan an'anaviy va interfaol metodlar

Hozirgi kunda xor dirijorlik darslaridan ta'lim berish jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday

bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda bo'lajak xor dirijor talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda bo'lajak xor dirijor shaxsining rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar bo'lajak xor dirijorlarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir ma'nolarini anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

-O'quvchi-talabalar bo'lmish bo'lajak xor dirijorning dars davomida o'rganilayotgan asarga nisbatan befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;


-O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

-Pedagog va O'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan xor-dirijorligi o'qituvchilari, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'lq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanilshi zaruru bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va bolajak xor dirijorining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishshlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb xisoblaymiz. Ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida O'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, gurug esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan xolda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ushbu fikrimizni chizma xolatida quyidagicha ifodalash mumkin:



Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda talabani ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit xolatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir xor-dirijorligi predmeti darsi uchun o'qitilayotgan fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Texnologik xarita:

Organiladigan asarning mavzusi	Talabalarga asar mavzuining mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish.
Maqsad va vazifalari	O'qituvchi: Yangi pedogogik texnologiyalarni qo'llay olishi
O'quv jarayonining mazmuni	Xor dirijorligi yo'nalishida bilim berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: , Forma: , Vosita: , Usul: , Nazorat: , Baxolash:
Kutiladigan natijalar	O'qituvchining erishgan yutug'i. O'quvchining mavzu yuzasidan olgan bilimi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Yangi pedogogik texnologiyalarni qo'llay bilish maxoratini oshirish. O'quvchi talaba: Mustaqil fikr yuritishni o'rganish.

O'qituvchi tomonidan xor-dirijorligi predmeti fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini

yaxlit xolda tasavvur etib yondashishga, tushunishga, yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa xor-dirijorligi predmeti texnologik xaritasini o'quvchi talabani talabning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa xolda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa bolajak xor dirijorirliigi mutaxassissini o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Xor-dirijorligi predmetini o'qitish jarayonida o'quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedogogka va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi xaqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk xor-dirijorligi predmeti mutaxassisi bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ushbu qo'llanmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun xavola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda, o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning bazi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin. Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bazi bir treninglarga tavsifnoma berib, bazilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiyanoma berib o'tamiz: "Tarmoqlar" metodi- o'quvchi talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

"3x4" metodi- o'quvchi talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh xolda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

3.5 Innovatsion texnologiyalar yordamida mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llari

Interfaol usullar:

Sinkveyn usuli

Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn- ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta soʻz bilan ifodalanadi.(3 ta feʼl yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va toʻrtta soʻzdan iborat boʻlgan fikr yoziladi.(4 ta soʻzdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, maʼnosi unga yaqin boʻlgan bitta soʻz yoziladi (mavzuga sinonim soʻz yoziladi).

Misoi tariqasida F.Nazarov musiqasi, Y.Qurbonov sheʼri bilan yaratilgan “Ohangaron” asarini olamiz:

Ohangaron

Ya.Qurbonov she'ri

F.Nazarov musiqasi

Allegro

Allegro

mf *f*

8 *mf* Qizlar *f* Yigitlar

Chor at-rof da kak-lik say-rar, ul - kan da-von, shar-bat su-vin

p

Qoʻshiq.

Shoʻxchan asar.

Ikki ovozli, joʻrnavezli, qizlar va yigitlar dueti.

2/4 oʻlcham, Iya major, partiturali, Allegro-tez tempda.

Sanoatchilar shahri –Ohangaron toʻgʻrisidagi asar.

Klaster usuli

Klasterlarga ajratish- oʻquvchilarga biror-bir mavzu toʻgʻrisida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul koʻp variantli fikrlashni oʻrganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar oʻrtasida aloqa oʻrnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» soʻzi gʻujm, bogʻlam maʼnosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni

da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Klasterlar tuzishdan yangi mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

Katta varog` qog`ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;


Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;

Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;

Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;

Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Masalan yuqoridagi asar misolida oladigan bo'lsak:



Insert usuli

Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert-bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Misol tariqasida yuqoridagi Y.Qurbonov she'ri, F.Nazarov musiqasi, "Ohangaron" asari matni va mualliflari haqida fikr yuritamiz:

-Asarning so'zlari, shery matn muallifi, kompozitori, dinamik belgilari, o'lchami, dirijorlik to'ri, tempi, alteratsiya va boshqa belgilar to'g'risida ma'lumotlar bera turib, o'qituvchi talabalardan bilishlari mumkin o'rinlarida V - bilganlarimni tasdiqlaydi belgisini qo'yib boradi, ya'ni talabalar o'qituvchi berayotgan ma'lumotlarni tasdiqlab, to'ldirib boradilar.

-Talabalar uchun yangi axborot ma'lumotlari uchraganda:

+ - **yangi axborot belgisi** doskaga yozib ketilaveradi.

-Talabalar uchun yangi axborot ma'lumotlari bilganlariga zid kelgan hollarda:

- **bilganlarimga zid keladi** - belgisi doskaga yozib ketilaveradi.

-Berilayotgan ma'lumotlarning qanchalik darajadagi qiziqarli, mavhumligi, muhimligi, dolzarbligi, v.h.k.z.larga qarab:

? - **meni o'ylantirib qo'ydi** belgisi ishlatiladi.

Mashg'ulot oxirgi qismlarida o'tkazilgan ushbu tajriba talabalar bilan tahlil qilinadi va yangi asarning talabalar xotirasida yaxshi saqlanishida juda qo'l keladi.

Ikki qismlik kundalik usul

Ikki qismlik kundalik usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o'qib chiqilgach, daftar varag'i quyidagi tarzda ikki qismga bo'linadi:

PARCHA

SHARH

Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir. Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

Masalan Y.Qurbonov she'ri, F.Nazarov musiqasi, "Ohangaron" asari mualliflari haqida ma'lumot berilganda, musiqa bastakori F.Nazarovning tug'ilgan shahri haqida shunday parcha va sharhlarni keltirish mumkin :

PARCHA

NAZAROV FATTOH(1919 – 1982)

SHARH

Frunze — Qirg'izistonning

1919-yil 1-yanvarda Frunze shahri (Qirg'iziston)da tug'ilgan.

sobiq poytaxti, hozirda Bishkek deb nomlanadi respublika ahamiyatiga ega-Chuy viloyatining ma'muriy markazi. Hozirda Bishkek Qirg'izistonning eng yirik shahri, shuningdek, respublikaning zamonaviy madaniy, siyosiy va iqtisodiy markazidir. Aholisi bo'yicha Qirg'izistonning eng yirik shahri - 1 088 900 kishi. (2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra) , asosiy transport markazi, shuningdek, mamlakatning sanoat va ma'muriy markazi.

Yana bir misol, asarning tempi haqida ma'lumot berilayotganda quyidagi parcha va sharhlar izohini keltirish mumkin:

PARCHA

ALLEGRO

quvnoq, jonli degan ma'noni anglatadi.

SHARH

Italiyaliancha- "Allegro" so'zi tez, Musiqada bu juda tez sur'atga mos keladigan eng keng tarqalgan templardan birining nomi. 18—19-asrlar bastakorlari ko'pincha sonata va simfoniylarning birinchi qismlarini allegro tempda yaratardilar. Shuning uchun ular yozgan shakl ba'zan sonata allegro deb ataladi. Bu, masalan, Gaydn, Motsart va Betxoven simfoniylarining birinchi harakatlaridir.

Aqliy hujum (Breynstorming)

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya⁵ qilish usuli. Bu metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

“Aqliy hujum”dan maqsadli foydalanish bo'lajak xor dirijoriligi talabalarlarning ijodiy va nostandart tafakkurlashini rivojlantiradi. Usulni qo'llash uchun dastlab yig'ilgan guruh oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammoni yechimiga oid munozarada barcha talabalar ishtirok etadilar va o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Dastlabki bosqichda hech kimni o'zga kishi g'oyalariga “hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. “Aqliy hujum” yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

“Aqliy hujum”ning qoidalari:

-Hech qanday cheklanmagan holda fikr va g'oyalar iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;

⁵ 1 generatsiya, nasl, avlod, bo'g'in;

2 tug'ilish, yuzaga kelish, paydo bo'lish; yuzaga keltirish

- Bildirilgan fikr va g`oyalar takliflar berish to`xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
- Bildirilgan har qanday fikr va g`oyalar hisobga olinadi;
- Qancha ko`p g`oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;
- Fantastik, qo`qqisdan miyada paydo bo`lgan fikrlar ham muhim;
- Bildirilgan fikr yoki g`oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ular muallifsizdir;
- Bildirilgan g`oya va fikrlarni to`ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
- Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
- Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.
- Fikr yoki g`oyalarning ma`qulini tanlash alohida “tanqidchilar” yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunga misol tariqasida yuqorida tahlil qilinib kelinayotgan asarimiz - Y.Qurbonov she`ri, F.Nazarov musiqasi, “Ohangaron” asarining lad tonalligini muhokama qilish mumkin:
-asarning boshlanish qismi:

Ohangaron

Ya.Qurbonov she'ri

F.Nazarov musiqasi

Allegro

Allegro

mf Qizlar *f* Yigitlar

Chor at-rof da kak-lik say-rar, ul - kan da-von, shar-bat su-vin

p

-asarning tugallanish qismi:

Asar notalari yozilgan varaqalar talabalarga tarqatilib, asar tonalligi va parallel tonalligi haqida, bastakor qanday dinamik va boshqa musiqaviy belgilardan foydalanganligi to'g'risida ma'lumotlarni berish savoli o'rtaga tashlanadi. Talabalar bilganlaricha tarqatma materiallarda javoblarini bayon qilishadi. Xuddi shunday asarning nazariy va amaliy jihatlari tahlili yuzasidan savol – javob va taklif tariqasida og'zaki muloqot ham o'tkazilishi mumkin. Bunda bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin, hamda barcha aytilgan takliflar yozib boriladi. Bunga taxminan 5 -10 daqiqagacha vaqt ajratilsa yetarli bo'ladi. Shundan so'ng Fikr yoki g'oyalarning ma'qulini tanlash alohida “tanqidchilar” yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi, hamda to'g'ri javoblar e'lon qilinadi.

B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali

Innovatsion usullardan biri bu B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. “B-B-B- (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) usuli mashg'ulot jarayonida asarning to'liq tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi”.

Masalan bunga misol tariqasida yuqorida tahlil qilinib kelinayotgan asarimiz - Y.Qurbonov she'ri, F.Nazarov musiqasi, “Ohangaron” asarining nazariy tahlili:

No	Bilamiz	Bilishni xoxlaymiz	Bildik
1	A-Lya major tonligida yozilgan	Parallel tonligi: Fis-fa diyez minor	Parallel tonliklar - bir xil kalit belgilariga ega bo'lgan tabiiy major va minorning juftlashgan tonliklari. Parallel minorning tonikasi major tonikidan bir yarim ton (kichik

			tertsiya) pastda joylashgan.
2	2/4 o'lcham dirijorlik to'rida quyidagicha: Ikki hissali sxema, mos ravishda, ikkita harakatdan iborat: biri pastga (yon tomonga), ikkinchisi yuqoriga (orqaga) ijro qilinadi.	Ushbu tartib 2/4, 2/8, 2/2, 2/1, 2/16 va hokazo hissalarini dirijorlik qilish uchun ham qo'llaniladi.	Siz bir yoki ikki qo'l bilan mashq qilishingiz mumkin. Ko'pincha, solfejio darslarida bir o'ng qo'l bilan, ba'zan esa chap qo'l bilan dirijorlik qilinadi. (o'ngda pianinoda kuy chalinadi).
3	Va hokazo....		

Xulosa:

Inter faol usullar orqali bo'lajak xor dirijorni tarbiyalash jarayonida ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shaklladi. Bu innavation yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

IV bo'lim

4.1 1-4 kurslar uchun taxminiy minimal dastur

I kurs

1. Bir hil xor a capella uchun 4 dona: xalq qo'shiqlarining aranjirovkalari, xor miniatyuralari.

2. Pianino jo'rligida bir hil xor uchun 4 dona asar.

Turli milliy maktablar, tarixiy davrlar, xor yozish uslublari, mazmuni, janri, teksturasi, taqdimoti bilan bog'liq bo'lgan, asosan garmonik, sodda taqdimot teksturali kichik hajmli musiqa asarlarini o'rganish.

Xor dirijorligi ishlarini olib borish:

- murakkab 6/8, 6/4, 9/4, 12/4, 4/2, 4/8, 8/4, 8/8 o'lchamlarda sekin va tez sur'atda;
- oddiy o'lchamlarga o'zgartirish bilan 3/4, 3/8 o'lchamlarida tez sur'atda, "bir" da dirijorlik qilinadi;
- dinamikada qarama-qarshi taqqoslashlar bilan (subito piano subito forte);
- agogik o'zgarishlar (tezlanishlar va sekinlashuvlar bilan), shu jumladan uzun kreshendo va diminuendo bilan.
- parchaning boshi va o'rtasidagi fermatalar (olinuvchi va olinmaydigan), pauzada, takt chizig'ida, notalar orasidagi ("havo" pauzalari), "grand" - pauza (taktlarda to'xtab qolish);
- shu jumladan stakkato, qisqa akkordlar, pauzalar bilan qismlarga ajratilgan; - o'z ichiga olgan, sinkoplar, urg'u, sforzando;

- cho'zilgan akkordda xor qismining oxiri bilan (forte yoki pianino);
- turli nuanslarga ega pesante bilan morendo smorzando, shu jumladan;
- sur'at va metrni o'zgartirish, shu jumladan;
- xor va solist uchun yozilgan.

II kurs

1. Bir hil va aralash xor a capella uchun 4 ta batafsil asarlardan parchalar.
2. 4 dona aralash xor uchun jo'rligda: opera sahnalaridan parchalar, kantatalar, oratoriyalar.

Polifoniya elementlarini, turli mazmundagi stilistik va janr xususiyatlarini o'z ichiga olgan birinchi kursga nisbatan katta shakldagi asarlar, opera sahnalari, taqdimotning murakkab teksturali xor asarlarini o'rganish.

Birinchi kursda olingan dirijyorlik texnikasi malakalarini mustahkamlash, dirijyorlikning yangi usullarini o'zlashtirish. Dirijyorlik kursning asosi bo'lgan texnikasini assimetrik o'lchamlarda to'liq yoki qisman yozilgan asarlarda turli metrik sxemalarni o'zlashtirish.

III kurs

1. Bir hil va aralash xor a capella uchun 4 ta polifonik asarlardan parchalar.
 2. Aralash xor uchun jo'rlikda bo'lgan 4 dona: opera, kantata, oratoriya qismlari.
- 1- va 2-kurslarda o'zlashtirilgan dirijyorlik texnikasi elementlarini qiyinchilik darajasi hamda hajm jihatidan katta bo'lgan musiqiy material bo'yicha o'zlashtirish va mustahkamlash.

Xor asarining asosiy tematik materialini mavzuga hamroh bo'lgan tovushlarning tegishli soyalari bilan ochib berish mahoratini egallash.

O'tiladigan kurs asosida dirijyorlik texnikasini xor polifoniyasini uning barcha ko'rinishlari (fuga, fughetta, fugato, taqlid va boshqalar)da egallash. Shuning uchun talabani individual rejasida polifonik shakllarda yozilgan asarlar, shuningdek, asosan polifoniya elementlarini o'z ichiga olgan kompozitsiyalar, vokal-xor tahlili, shuningdek, ijro texnikasi va dirijyorlik texnikasining rivojlanishidagi qiyinchiliklar bo'lishi kerak.

IV kurs

1. Aralash xor a capella uchun 4 ta polifonik asar.
2. 4 dona aralash xor uchun konsertmeyster jo'rligida: batafsil opera sahnalari, kantata qismlari, oratoriyalar.

Mazmun va shakl jihatidan murakkab, katta hajmli, shu jumladan turli xil taqdimot usullari, uslub va janr xususiyatlari jihatidan xilma-xil bo'lgan asarlarni o'rganish. Katta musiqiy shaklni (oratoriya qismlari, opera sahnalari, yirik original kompozitsiyalar) dirijyorlik talqini mahoratini egallash.

4.2 Tanlangan asarlarga annotatsiya rejasini

1. Asar va uning mualliflari haqida umumiy ma'lumot:

- Nashr qilingan yili, musiqa va matn mualliflari, xor janri.
- 3. Bastakorning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar:
 - hayot yillari, ijodining umumiy tavsifi;
 - asosiy ishlari;
 - tahlil qilingan musiqa asarining kompozitor ijodidagi o'rni.
- 4. Matn muallifi haqida qisqacha ma'lumot:
 - hayot yillari, ijodining umumiy xususiyatlari;
 - tahlil qilinayotgan she'rning (badiiy matn) shoir (yozuvchi) ijodidagi o'rni.
- 5. She'riy (adabiy) matn mazmuni:
 - uning g'oyasi (mavzular, tasvirlar, taqdimot shakllari) va musiqa bilan aloqasi.
- 6. Matn mazmuniga qarab musiqaning tabiati, g'oyasi va rivojlanishi nimalardan iborat, u (personaj⁶) musiqiy va ifodali vositalar bilan ifodalanadi.

4.3 Mashg'ulotda o'tiladigan asarlarning tahlili

- oddiy, yoki murakkab o'lchamlarini aniqlash;
- temp - sekin, tez sur'atlarini tahlili ;
- o'lchamlarga o'zgartirish bilan 3/4, 3/8 o'lchamlarida tez sur'atda, "bir" da dirijorlik qilish imkoniyatlari;
- dinamikada qarama-qarshi taqqoslashlar bilan (subito piano subito forte);
- agogik o'zgarishlar (tezlanishlar va sekinlashuvlar bilan), shu jumladan uzun kreshendo va diminuendo;
- asarlardagi parchaning boshi va o'rtasidagi fermatalar (olinuvchi va olinmaydigan), pauzada, takt chizig'ida, notalar orasidagi "lyuft" ("havo" pauzalari), "grand"- pauza (taktlarda to'xtab qolish);
- shu jumladan stakkato, qisqa akkordlar, pauzalar bilan qismlarga ajratilgan;
- o'z ichiga olgan- sinkopalar, urg'u, sforzando;
- cho'zilgan akkordda xor qismining oxiri bilan (forte yoki piano);
- turli nuanslarga egaligi;
- sur'at va metrni o'zgartirish;
- xor va solist uchun yozilgan partiyalar tahlili;
- o'lchamlarda dirijorlik sxemalari;
- sxemalar ijrosida qo'llar amplitudasi;

Musiqiy nazariy tahlil

1. Musiqiy janr.

⁶ **Personaj** (lot. persona — shaxs) — san'at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. P.lar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga ko'ra asosiy P.lar, yordamchi P.lar, epizodik P.larga bo'linadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy g'oyaviy-estetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy P.lar hisoblanadi. Ular asarning bosh qahramoni deb ataladi. Barcha voqealarda to'la qatnashmasada, yozuvchining g'oyaviy niyatini to'laroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi P.lardir.

2. Asarning shakli.
3. Kirish qismining xarakteristikasi.
4. Kuyning (uning musiqiy va ifoda vositalarining) xususiyatlari:
 - a) ohangning-melodik chiziq sifatida harakati, lad;
 - b) vaqt o'lchovlari - ritm, metr, temp;
 - v) fonetik - tembr, dinamika;
 - d) tipik - musiqa asarining uslubi, janri;
 - e) intonatsiya
5. Asarning ladotonal xususiyatlari:
 - a) asosiy tonallikni aniqlash;
 - b) tonal ladning xarakteristikalari (modulyatsiya, og'ish, taqqoslash);
 - v) modal xususiyatlar (kadanslar; tabiiy, garmonik, melodik va almashinish lادلari).
6. Asar garmonik tilining xususiyatlari, o'ziga xosligi va murakkabligi.
7. Fakturaning (qanday yozuvda) tavsifi:
 - a) monodik;
 - b) gomofonik-garmonik (melodik-garmonik, gomofonik, garmonik, akkord); v) polifonik (taqlid, pastki ovoz, kontrast);
 - d) aralash;
 - e) teksturaning asar mazmuni va xorning ifoda vositalari bilan aloqasi (bo'linish, unison, dublikatsiya, xor tutti, xor guruhlarini yonma-yon joylashtirish).
8. Akkomponimentning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Yakuniy sozlash va uning kirish qismi bilan bog'liqligi.

Vokal-xor tahlili

1. Xorning turi va tipi.(Xor turlari-Ijro amaliyotida xorning to'rt turi mavjud: ayollar, erkaklar, bolalar, aralash. aralash xor (xorning eng keng tarqalgan turi) - erkak va ayol ovozidan iboratligi. Ayol ovozi soprano va altos qismlarini, erkak ovozi tenor va bas qismlarini tashkil qilishi. Tiplari-tovushlarning nechaga bo'linganligi, to'liq yoki to'liqsizligi, partiturada tovushlar qanday bo'linganliklarini ko'rsatish v.h.k.z.)
2. Xor va xor qismlari diapazoni.
3. Xor va alohida qismlarning vokal yuklamasi darajasi. Musiqiy-mavzuiy materialni xor partiyalari yoki yakkaxon ovozlari va hamrohlik o'rtasida taqsimlash.
4. Xor ansambli.
5. Xor tizimi. Ohang va garmonik tuzilmaning xususiyatlari va qiyinchiliklari, garmonik tahlil asosida ularni aniqlash. Intonatsiya qiyinchiliklarini yengish usullari.
6. Nafasni kuylashning o'ziga xos xususiyatlari (turlari: umumiy xor, partiyalar bo'yicha, zanjir).
 - Tovush shakllanishi va tovush fanining tabiati.
 - Matnning ovozlantirishda Diksiyaning xususiyatlari.

Ijro rejasi

1. Berilgan asarni (katta, o'rta, kichik) ijro etish uchun zarur bo'lgan xor tarkibini va uning malakasini (professional, o'quv, havaskor) aniqlash.
2. Frazaga xos xususiyatlar; musiqiy va she'riy iboralarning kattaligi va mantig'ining muvofiqligi, ularning o'zaro bog'liqligi va nafas olish tartibi (kesura: sintaktik, asintaktik, tor, qofiya).
3. Kulminatsiyaning ta'rifi.
4. Eng xarakterli vokal va xor qiyinchiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash.
5. Dirijyor imo-ishorasi(jest)ning xususiyatlari.

Yakuniy tahlil

1. Asar ustida ishlash natijasida xor jamoasi egallagan vokal va xor mahoratini tahlil qilish.
2. Musiqa asarining hozirgi zamon musiqi-xor san'ati nuqtai nazaridan ahamiyati va musiqa ta'limining vazifalari.

Musiqa asarini tahlil qilish ijodiy jarayondir, shuning uchun musiqa asariga qarab savollarni alohida bo'limlarga ko'chirish mumkin. Ammo bo'limlar ketma-ketligiga rioya qilish kerak, chunki aks holda tahlilning tarkibi, uning mantig'i buziladi.

Xor dirijorligi ishlarini olib borish:

- sekin sur'atda $5/4$, $5/2$ o'lchamlar bilan ishlash;
- $5/8$, $5/4$, $5/2$ o'lchamlar bilan besh hissali, ikki hissali sxema bo'yicha va "bir" sanog'ida boshqa turdagi o'lchamlar bilan almashtirib ishlash;
- $7/4$ va $7/8$ o'lchami boshqa turdagi o'lchamlar bilan sekin va tez sur'atlar bilan almashib, yetti hissali va uch hissali sxema bo'yicha dirijorlik qilinadi;
- $11/4$ o'lcham va boshqa turdagi murakkab o'lchamdagi tuzilmalari bilan ishlash.

Dirijyor imo-ishorasi(jest)ni musiqaning metro-ritmik harakati tufayli zarbalarning turli bog'lanishlari va guruhlarida ishlash.

V bo'lim

5.1 Xor dirijorlik sinfi mashg'ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati

Maxsus dirijorlik fanlarining o'quv rejasi turkumida xor-dirijorlik sinfi muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim sharoitlaridagi o'quv jarayonida bo'ljak pedagog-xormeysterning xor madaniyatini kasbiy jihatdan shakllantirish kasbiy negizda, o'quv fani sifatidagi xor-dirijorlik sinfining kuchi bilan hal etilishi kerak. Vokal bo'limi o'quv rejasidagi kamer xorga opera tayyorgarligi sinfiga tayyorlov jarayoni sifatida qaraladi, unda nafaqat yakka ariyalar, balki turli xil vokal ansambllari (duetlar, tertsetlar, kvartetlar, sekstetlar va h.k.)ni o'rganish nazarda tutiladi. Xorda kuylash - bu asos bo'lib, amaliyotda kasbiy faoliyat olib boruvchi talabalarning keyingi ta'limi aynan unga quriladi. Xor-dirijorlik sinfi dastlabki qadamlaridanoq dirijyor va akademik xonanda uchun zarur bo'lgan iroda va artistizm sifatlarini tarbiyalovchi muhim psixologik ahamiyatga ega. Shu bois, o'quv xori ishlarini yo'lga qo'yish va uslubiyotini

tashkillashtirish masalalarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbligini baholash mushkul. Xor sinfi - bu dirijorlikning amaliyotiga chambarchas bog'liq. Xor sinfi va amaliyotda xor bilan ishlash xor dirijyorlari uchun o'zaro uzviy bog'langan faoliyatdir, biroq bunda bir o'quv fanining mustaqil boiimlari yetarli bo'ladi, akademik xonandalar uchun esa kamer xor - bu nafaqat ansambl bo'lib kuylash ko'nikmalarini ishlab chiqish, balki dirijorning qo'l harakatiga qarab kuylay olish boiib, u nihoyatda muhim lahzadir, sababi xonandalar kelajakda turli xil tarkibli orkestrlar va dirijyorlar bilan sahnaga chiqadilar.

O'quv xori mashg'ulotlarida xor ijrochiligi, xor sozi, xor ansambli, xonish nafasi va uning boshqa vokal-xor texnikasi unsurlari bilan o'zaro bogiiqligi kabi spetsifik ko'nikmalarni egallanadi va takomillashtiriladi; repetitsion jarayon texnologiyasi batafsil o'rganilib, ijrochilik faoliyati, ijro talqini singari ko'nikmalar tarbiyalanadi. O'quv xori bilan olib borilgan usluban to'g'ri va maqsad sari yo'naltirilgan vokal-xor ishi pirovardida badiiy yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Xor jarangi yorqin va ifodali bo'lib, jamoaning ijrochilik imkoniyatlari sezilarli ravishda kengayadi va repertuar partiturasini ham boyib boradi. Talabalarning musiqiy eshitish qobiliyati o'z xonishlarini umumxor va ansambl jarangi bilan koor- dinatsiyalashtirish usullari uchun aynan unga qaratilgan bo'lishi kerak. O'quv repertuariga bo'lgan talab ayniqsa yuqori bo'lishi kerak - axir repertuar tanlash jarayonida zarur texnik va ijrochilik ko'nikmalariga ega bolishdan tashqari bo'lajak kasbiy musiqachilarning badiiy didi ham tarbiyalanadi. Shu bois xor-dirijorlik sinfi repertuariga mahalliy va xorijiy xor musiqasining faqatgina eng sara namunalarini kirtish lozim. Xor-dirijorlik sinfida doimo keng miqyosdagi xor repertuarini o'rganishni joriy etish kerak, sababi talabalar turli davrlar, maktablar vo yo'nalishlardagi xor madaniyati yirik ustalarining eng sara ijod mahsullari bilan tanishib, repetitsion ishning muhim xususiyatlari vu turli uslublardagi xor musiqasi ijrosini tahlil qilib boradilar. Ijrochilik interpretatsiyasi sirlarini mukammal egallagan, o'zining ijodiy qiyofasida tiniq aql, iroda, ijrochilik temperamenti va boy ijodiy fantaziyani jamlagan tajribali dirijyor rahbarligi konsert chiqishlari muhitida xor jamoasi badiiy-ijrochilik mahorati sohasida sezilarli muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Bunday ijroning tolaqonli ishtirokchisi bo'Igan talaba haqiqiy ijodiy ilhom lahzalarini boshidan o'tkazishi va ijodiy kashfiyot shodligini tuyishi tabiiydir.

Bunday lahzalar unutilmaydi, ular doimiy ijodiy g'oyaga bo'Igan talabni tug'diradi, va ilhomning yangi oqimlarini yuzaga keltirishga qodir yangi badiiy taassurotlar izlab topishga yetaklaydi. Ushbu barcha kasbiy sifatlami bo'lajak mutaxassislar o'quv xor jamoasida kuylash va dirijorlik qilish jarayonida egallaydilar, zero xor dirijyori yohud opera xonandasini tarbiyalashni ta'limning birinchi yilida akademik xonandalar kamer xorida kuylash amaliyotida va xor dirijyori xorda kuylash amaliyoti bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirish zarur. Xor sinfining ishida bo'lajak xormeysterlar, bitiruvchi talabalar uchun konsert dasturi ham nazarda tutiladi. Mutaxassislikdan davlat

imtihonini topshirish talabalar ishining yakuni bo'lib, uning jarayonida talabanning xor bilan ishlash davomida egallagan bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi va takomillashadi, talabalar xor sinflari ochiq konsertlarida dirijyor sifatida ko'nikmalarga ega bo'ladilar, shuningdek, bir qator boshqa tashkiliy va ijodiy vazifalar ham o'z yechimini topadi. O'quv xorining to'g'ri yo'lga qo'yilgan tashkiliy ishlari negizida bu vazifalarning muvaffaqiyatli yechimi yotadiki, u bo'lajak mutaxassis musiqa madaniyatini to'g'ri shakllantirishni ta'minlaydi.

5.2 Amaliy mashg'ulotlar jarayonida e'tibor berish zarur bo'lgan qoidalar

Dirijorlik amaliyoti fani xor jamoalari tashkilotchisi tayyorlashda mutaxassislik fanlaridan biridir. Ushbu fanni o'qitish jarayonida xor jamoalari ijrochiligi tarixi, xor asarlari va o'zbek milliy merosidan o'rin olgan asarlar bilan bir qatorda bastakor hamda kompozitorlar yaratgan asarlar, qo'shiq aytish jarayonida gavdani tik holda tutish, hatto o'tirib ijro qilgandagi holatlar, to'g'ri nafas olish, uni to'g'ri sarflash yo'l-yo'riqlari, ijrodagi nafas olish bilan jismoniy nafas olishning farqi ham chuqur o'rgatiladi. Qo'shiq aytish davomida artikulyatsiya apparatining ahamiyat nechogii katta ekanligi ma'lum. Shu sababli uning erkin ishlatilishi, unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishi muhim ahamiyatga ega. Ijroning chiroyli va eshituvchiga yetib borishida yuqorida aytib o'tilganlar bilan birga asarning mazmun- mohiyatini chuqur anglab yetish ham muhimdir. Shunga ko'ra, har bir tanlab olingan asarni mazmuni chuqur tahlil etiladi. Nafas olish o'rinlarini (frazalarini) aniqlash ham bulardan mustasno emas. Shunday ekan to'g'ri nafasdan foydalanish va o'z o'rnida nafas olish, ayniqsa so'z bo'g'inlarini bo'lmagan holda nafas olish maqsadga muvofiq.

Vokal-xor ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish

Xor-dirijorlik sinfida vokal-xor madaniyatining yuksak saviyasi - bo'lajak musiqachining - uning vokal eshitish qobiliyatining yana bir muhim kasbiy sifatini rivojlantirishdagi zarur sharoitdir. Vokal eshitish qobiliyati - bu musiqiy eshitish qobiliyatining bir turi bo'lib, unda inson ovozi o'zining barcha nozik tembrli, dina- mik, intonatsion va boshqa ranglari bilan jaranglashi alohida aniqlik bilan tavsiflanadi. Vokal eshitish qobiliyatisiz ulug'vor "yopiq" tovushni bo'g'iq, "bekitilgan" ovozdan; go'zal, "yumaloq" tiniq tovushni notabiiy, nobadiiy va h.k.dan farqlash mumkin emas. Faqat vokal eshitish qobiliyati bilangina dirijyor va xonanda tovushning badiiy bezagi, shunga ko'ra ovozning kuylovchi sifatlari ifodaviyligi xususida ham o'ylashi mumkin. O'z ovozini boshqara olish, xonishning texnik usullarini amaliy jihatdan egallash bo'lajak dirjor va xonandaga boshqa har qanday maxsus nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar kabi zarurdir. Xor –dirijorlik sinfida tahsil olish talabalarning ovozni yo'lga qo'yish uslubiyoti fani va yakka darslarda o'zlashtirgan yagona vokal texriikasini muntazam ravishda qo'llashga asoslanadi. Xor-dirijorlik sinfining ishida nazariy bilimlar va amaliy kuylash ko'nikmalarini doimiy qo'llash orqali talabalarning vokal texnikasi asoslarini egallash jarayoni jadalroq kechadi, bu esa o'quv xoridagi xor jarangining barcha uch

unsuriga (soz, ansambl, nyuanslarga) erishishni yengillashtiradi va osonlashtiradi. Bundan tashqari, yagona vokal texnikasi talaffuzning zarur sifati ustida, ayniqsa turli sur'atda ijro etiladigan rechitativlardagi mate talaffuzi usullari ustida birmuncha muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi. Ovozni mashq qilish - xor jamoasi ishining eng muhim bosqichi. Ovoz mashqi ikki maqsadda bajariladi:

1. Xorni kuylashga (repetitsiyaga yoki konsertga) tayyorlash;
2. Xonandalarning odatiy ijrochilik bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirish va kengaytirish.

Har ikki maqsad ham xormeyster-dirijorning xor ijrochilik faoliyatining muayyan psixologik va texnologik asosni yaratishga qaratilgan majburiy harakatini nazarda tutadi. Ular faqat bir vaziyatda aniq vazifalarni yechishda qo'llaniladi: bu xorni sozlash, boshqasida birmuncha keng qamrovli vazifani hal etadi - xonandalarni xor ijrochiligi texnikasi bilan ta'minlash. Shunga ko'ra, har bir mashg'ulot o'zida ikki asosiy vazifani jamlagan bo'lishi kerak: bu xonandalarning ruhiy tayyorgarligini va texnologiyani o'zida mujassam etishidir. Turli xil vazifalarga e'tibor qaratish, xonandalar ovozini sozlash tizimida u yoki bu mashqlarning o'rnini ham belgilab beradi. Bunda dastlab psixologik vazifalar, shunga ko'ra, ularning mashqlari ham ustunlik qilishi kerak; so'ngra dirijor urg'uni texnik talablarga beradi, yakunda esa xonandalarning ruhiy holati va texnik imkoniyatlari keyingi ijroga monand holga keltiriladi. Har bir dirijyor xor bilan ishlash davomida vokal-xor mashqlarini tanlab, ulardan foydalanishda o'zining shaxsiy tamoyillariga tayanadi. Musiqiy material va texnik vazifalarga qarab tanlangan rang-barang mashqlar xonandalarga nafaqat texnik foyda keltirishi, balki xorda kuylashga qiziqish uyg'otishi ham kerak. Mashq kuylashning bosh vazifalaridan biri - har bir partiya, ovozlari guruhi va butun xorda unison tuzishdir. Barcha bir ovozli mashqlar butunligicha aynan shunga qaratilgan. Bunday ish o'ta uzun va mashaqqatli bolib, dirijyordan ham, xonandalardan ham maksimal darajadagi faollik, e'tibor va asosiysi sabr-toqatni talab etadi. Garmonik mashqlar, xonandalarning garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlash, unison kuylash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan parallel ravishda olib borilishi kerak, sababi, ko'p ovozlik (uning har qanday turi, elementar ikki ovozli kanonlardan to eng murakkab garmonik va polifonik konstruktsiyalarigacha) xor musiqasining eng muhim unsurlaridan biridir. Garmonik ko'nikmalarni rivojlantirish eng oddiy mashqlardan boshlanishi kerak: bu garmonik intervallar (sof kvarta va kvintalarni tuzish), tertsiya bo'ylab gammalar, tovush va bo'g'inlarga kanonlar, eng oddiy kadensiyalar va h.k.ni kuylashdir. Xor ijrochiligining jamoaviy xarakteri xonandalarning vokal texnikasini tuzatib qirtishlaydi va xonishning spetsifik usullaridan foydalanish hamda ovozni tarbiyalashni belgilab beradi. Talabalar tomonidan ansamblning (uning turlari - ritmik, sur'atli, dinamik, tembrli, ham xor partiyasi ichida, ham xoming barcha partiyalari orasidagi diksion, akkompament (yoki yakkaxon) bo'lsa - xor va akkompament ansamblining ritmik, sur'atli va

dinamik turlari), sozning (toza intonatsiyalay olish, boshlang'ich tonallikni ushlab tura olish va kuylash davomida xoming bir tiechta yoki barcha partiyalarining bir vaqtdagi jarangi asnosida yuzaga keladigan interval hamda akkordlami intonatsion jihatdan to'g'ri "tuza olish"), xor ansambli ijrosining (shtrixlar va nota matnida berilgan tovushlami kuylash usullariga tegishli barcha dinamik, garmonik turlarni o'qiy olish va amalda savodli qilib ijro eta bilish, "zanjirli" nafasni bilish, konkret musiqiy asarning rang-barang uslubiy xususiyatlarini farqlash olish va uni ijro etishda mazkur uslubga tegishli badiiy usullarni bajarish) vokal-xor ko'nikmalarini egallash repetitsion jarayonga ega, sababi, aynan repetitsiyalarda, texnik va ijodiy ishlar jarayonida talabalar asta-sekin zarur ko'nikmalami egallab, ularni repertuar ustida ishlash davomida muntazam ravishda qo'llash orqali takomillashtirib boradilar. Talabalarning o'z-o'zini tayyorlashlari ham juda muhim rol o'ynaydi, ularga keyingi mashg'ulotlariga tayyorlanishlari uchun muayyan vaqt beriladi. Bunday zaruriyat talabalarning konkret vazifa ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishidan kelib chiqadi. Talabalarining uy vazifasi asosan quyidagi unsurlardan iborat bo'ladi:

- o'rganilayotgan asarning dirijorlik to'rlarini bilishi;
- o'rganilayotgan asarning xor ovozlari kuylash;
- ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari;
- xor partiyalarining har birini alohida, turli xil mutanosibliklarda va umuman butun partituraning fortepianoda chalish;
- o'rganilayotgan asarni tahlil qilish.

5.3 Xor ovoz partiyalarini o'zlashtirishning usullari

Xor ovozlarning xonishi xor asarini o'zlashtirishdagi muhim lahzadir. Ovozlarni o'rganishga ikki yo'l bilan erishiladi: xor partiyalarini fortepianoda chalish va ularni ovoz bilan takrorlash. Bu xor partiyalari kuy chiziqlarini eslab qolishning mexanik usuli deyiladi. Materialni bunday o'zlashtirishning ijobiy tomoni shundaki, unga ko'p vaqt talab etilmaydi. Xor partiyalarini o'zlashtirishning boshqa usuli solfedjiolashdir. Bunday usul ko'p vaqt va e'tiborni talab etsada, ammo talabalarining musiqiy rivojlanishi borasida birmuncha samaralidir: u talabalarida musiqiy eshitish qobiliyati va aniq intonatsiyalashni rivojlantirib, har bir xor partiyasi vokal xususiyatlarini his eta olishni tarbiyalaydi. Har bir talaba o'z individualligini namoyon etishi borasida uning musiqiy xotirasi ham muhim rol o'ynaydi. Musiqiy xotira turli xil toifa va eslab qolish usullariga ega. Kimdir dirijorning qol harakatlarini eslab qolsa, kimdir partitura ko'rinishini eslab qoladi (foto-grafik xotira) va h.k. Mayk Bryuer o'zining "Fine-tune your choir" nomli asarida o'z tasnifatini taklif etadi: *Xotiraning odatda qo'llaniladigan turli toifalari:*

-Faktik xotira: muayyan axborotni eslab qolish. U tuzilish va strukturani anglab yetishni, shuningdek, kalit, o'lchov va ijrochilik ko'rsatmalari kabi sahifalardan olingan ma'lumotlami o'z ichiga oladi.

-Kinestetik xotira: harakat va uning takrorini eslab qolishga qaratilgan muskul xotira. Bu-dirijyor uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan asbob, sababi konkret harakatlar ongli ravishdagi hayolij jarayonlami chetlab o'tib, tovush hosil qilish va kuylash texnikasiga ta'sir qiladi. Ba'zan uni "miyaning o'ng yarim shari" xotirasi deb ataydilar".

-Vizual xotira: matnni ko'rib eslab qolish. Ko'rib eslab qolinadigan matnning ichki tasavvuri yoki dirijyor harakatlarini eslash (kinestetik xotira bilan bog'liq).

-Eshitib eslab qolish: tovushlami eslab qolish. Uni ko'pincha "ichki eshitish qobiliyati" deyiladi, bu esa musiqani ichki eshitish qobiliyati bilan "tinglash" mumkin, degani. Ushbu ko'nikmalar ta'lim orqali sadolantirishning katta aniqligigacha takomillashtirilishi va asosiy ton, ritm, garmoniyani anglab yetish, bir vaqtning o'zida ikkita partiyani, akkordli sekvensiyalar ketma-ketligi va modulyatsiyalarni eshita olish ham mukammallashtirilishi mumkin.

-Mimikoriya: tovush va voqealardan nusxa olish. Bu - bir lahzalik xotiraning eng oddiy turi bo'lib, ta'lim jarayonida juda samaralidir, va u munosib bahoga loyiqdir. -

Emotsional xotira: kayfiyat, tuyg'ular, obrazlar yoki harakatlar xarakterini eslab qolish. Bu ish jarayonida, ijodiy tajriba uchun zamin tayyorlashda o'ta muhimdir. Dirijyor o'rgatish jarayonida xotiraning har bir toifasini jalb etishga intilishi, va bu orqali qobiliyat va shaxsiy ustunlikni rivojlantirishi kerak. Xor (vokal) iboralarining xakteri musiqiy va nutqiy intonatsiyalash xususiyatlari bilan izohlanadi va musiqiy faktura hamda she'riy matnga bog'liq bo'ladi. Bu borada Mayk Bryuer so'z ustida ishlash bo'yicha turli xil metodlarga nisbatan o'z yondashuvini taklif etadi: "So'zlami eslab qolish. Sababi og'zaki tafakkur musiqiy xotiraga nisbatan ko'proq rivojlangan, agar so'zni alohida yodlab, so'ngra uni musiqa bilan kuylansa, ko'p vaqt va kuchni tejab qolish mumkin. Faoliyatni har safar o'zgartirib quyidagilarni qo'llab ko'ring:

- So'zni strukturasi va ahamiyatini to'liq anglagan holda o'qing.
- Tasavvur hosil qilish uchun birinchi va o'sha zahoti oxirgi satrni o'rganing.
- Har bir satrni takror bilan o'rganing.
- Satrlar so'zlarini turli xil ritmik urg'ular bilan yoddan ayting, masalan, kuchli hissalar o'rniga kuchsizlarini urg'ulab. Barcha ikkinchi darajali so'zlarni belgilab chiqing (suxandonlar kabi).
- So'zlarni shivirlab ayting.
- Faqat unli tovushlarni ayting.
- So'zlarni stakkato bilan ayting.
- Matnni turli xil qismlarini urg'ulagan holda ayting.
- So'zlarni, bitta so'zni yoki satrni butun xor bo'lib ayting".

5.4 Vokal-simfonik asarlar ustida ishlashdagi muammolar

Xorijiy mualliflarning yirik vokal-simfonik asarlari ustida ishlashdagi muammolardan biri - bu ularni original tilida ijro etishdir. Diniy mavzuli asarlar -

messa⁷lar, rekviem⁸lar, magnifikatlar odatda lotin matniga bog'lanadi, ba'zi asarlarda esa qisman turli xil o'zga tildagi matnlar eski nemis, eski fransuz, turli xil lahjalarda she'rlar uchraydi, ularni o'rganish jarayonida ma'lum qiyinchiliklarga duch kelamiz. Y.Gaydnning "Olamning yaralishi" nomli oratoriyasi, I.S.Baxning "Matveyni qo'msab", K.Orfining "Karmina Burana" kantatasi kabi asarlaming she'riy matnlari bunga misol bo'lishi mumkin. Shunday qilib, dirijorlik sinfida talabalar bilan ishlashda talaffuz muammosi ko'ndalang turadi.

"Turli xil madaniyatlarning musiqiy uslubi ko'p jihatdan talaffuz Sahnalari bilan bog'liq bo'lgan intonatsion xususiyatlar va tilning vokal bo'yog'iga bog'liq.

O'tmish musiqasining autentik maqsadi - nafaqat musiqiy iboralaming ijro usulini balki grammatik talaffuzni yaratishdir. Agar biz boshqa tilda so'zlashishni istasak, muloqotni hech qanday til omili bilan almashtirib bo'lmaydi; hech qanday transkripsiyalar ro'yxati real talaffuzni o'rnini bosolmaydi"

Xorda o'rgatish davomida katta salohiyatli imkoniyatlarga ega bo'lgan fonetik metod ustunlik qiladi. Jamoaviy jarangga maxsus tanlangan fonemalar bilan ta'sir qilgan holda, har bir xor a'zosining ovoz hosilasini samarali boshqarish metodi yordamida elementar xonish ko'nikmalari ishlab chiqiladi, tovushning zarur pozitsiyasi topilib, fonetsion nuqsonlar bartaraf etiladi. Dirijorlar turli xil unilalar va bo'g'inlarga vokalizatsiyalar qo'lib, natijada jarangning zarur bo'yog'ini oladilar. Kerakli xonish usuli topilgach, asarni so'zlari bilan ijro etishga o'tiladi. Masalan, ixtiyoriy ravishda ovoz tembiini lablar chetini kengaytirib, yorug'roq qilish, yoki lablarni oldinga cho'zib va tovushni "o'ta yumaloqlab" tundroq qilish mumkin, biroq, shodlik va qayg'uni his etmay turib, bunday yorug' tembrni sho'x qilish yoki tund tembrni g'amgin qilish mumkin emas, zero u yoki bu hissiyotni ifodalayotgan tembr tavsifi birmuncha boyroq,

⁷ Messa (frans. messa, mitto — yuboryapman) — 1) katolik xristianlarda asosiy ibodatlardan biri (liturgiya)ning nomi. Xristianlarning e'tikridiga ko'ra, M. jarayonida ibodat qiluvchilar Iso Masihga qo'shilish orqali o'z gunoxlaridan xalos bo'ladilar. Injil parchalarini o'qish, diniy aytilmlarni kuylash hamda Iso Masihni hayoti va o'limini ifodalovchi maxsus harakatlardan iborat. M.ni o'tkazish tartibi va tarkibi ko'p asrlar davomida shakllanib, 16-asrda hozirgi ko'rinishga ega bo'ldi; 2) Uyg'onish davridan boshlab Yevropa madaniyatida eng yirik diniy mussha janri, lotin matnlariga aytiladigan vokal yoki vokal-cholg'u turkumi. "Oddiy" (missa ordi-narium), "tantanavor" (missa solemnis) hamda "qisqa" (missa brevis) turlari mavjud. "Oddiy" M.da asosiy qismlarning nomlari — "Kyrie eleison" ("Xudo o'zing kechirgin"), "Gloria" ("Shon-sharaflar bo'lsin"), "Gredo" ("Ishonaman"), "Sanktus" ("Muqaddas") va "Benedictus" ("Marhamatli"), "Agnus Dei" ("Xudo arzandasi") — matnning boshlang'ich so'zlaridan olingan. Dastlab bir ovozli, grigorian xorali asosidagi aytilmlardan iborat bo'lgan. Keyinchalik, kompozitorlar yaratgan ko'p ovozli M.lar rivoj topgan (ilk namunalardan biri — G. de Mashoning to'rt ovozli M.si, 1364). O. Lasso, Palestrina, keyingi davrda I.S. Bax, V. Motsart, L. Betxoven, F. Shubert, A. Brukner, 20-asrda I. Stravinskiy, B. Britten, B. Martinu, F. Pulenk, K. Penderetskiylar va boshqalarning M. lari mashhur. Motam M.si — rekviyemdir.

⁸ Rekviyem (lot. reguiem — orom, tinchlik) — marxumlar xotirasiga bag'ishlangan messa turi, diniy musiqa janri, lotin matnlariga aytiladigan vokal yoki vokal cholg'u turkumi. Tantanavor messadan ba'zi ("Gloria", "Credo") qismlarining o'rniga boshqa ("Reguiem aeternam" — "Abadiy orom", "Dies irae" — "Qiyomat" kabi) qismlarning kiritilishi bilan farqlanadi. Qayg'uli, motamsaro harakterga ega. Dastlab bir ovozli grigorian xorali kuylariga asoslangan. 15-asrdan ko'p ovozli xor polifonik asari (G. Dyufai, Y. Okegem, O. Lasso, J. Palestrina), 17-asrdan xor, yakkaxon xonandalar va orkestr uchun gomofoniya uslubidagi yirik asar sifatida rivoj topdi. V. A. Motsart, G. Berlioz, J. Verdi, I. Brams R.lari mazkur janrining eng mashhur namunalaridir. 20-asr kompozitorlari (I. Stravinskiy, A. Shnitke va boshqalar) diniy (lotin) matnlari katori zamonaviy shoirlar she'rlaridan ham foydalanishgan (Mas, B. Brittening "Harbiy rekviyem"i). O'zbekistonda R. janriga M. Burhonov ("Abadiy xotira", 1996), F. YanovYanovskiy ("Rekviyem", 1997)lar murojaat qilishgan.

